



O‘ZBEKISTON – MO‘G‘ULISTON: DO‘STLIK VA KO‘P QIRRALI HAMKORLIK MUNOSABATLARI YANGI BOSQICHGA KO‘TARILMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Mo‘g‘uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsuxning taklifiga binoan 24-iyun kuni rafiqasi bilan birga davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatga keldi.



Davlatimiz rahbarini Mo‘g‘uliston tashqi ishlar vaziri Batmunch Batseseg va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Ikki mamlakat bayroqlari bilan bezatilgan “Buyant-Uxaa” aeroportida oliy martabali mehmonlar sharafiga faxriy qorovul saf tordirdi.

Bu tashrif mazmun-mohiyatiga ko‘ra tarixiy voqea, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Nega deganda, ikki mamlakat o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan o‘ttiz yildan ortiq vaqt davomida birinchi marta O‘zbekiston rahbari Ulan-Batorga davlat tashrifi bilan bormoqda.

Shu ma‘noda aytish mumkinki, ushbu tashrif o‘tgan yilning iyun oyida Mo‘g‘uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsuxning O‘zbekistonga tashrifi chog‘ida boshlangan faol siyosiy muloqotning mantiqiy davomidir.

O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston geografik jihatdan uzoq joylashgan va umumiy chegaralarga ega bo‘lmasa-da, o‘zaro aloqalar diplomatiya, iqtisodiyot, transport, madaniyat va gumanitar sohalarida jadal rivojlanmoqda. Xususan, Toshkentda Mo‘g‘uliston elchixonasining ochilishi, hukumatlararo va parlamentlararo muloqotning faollashgani, 14 ta ikki tomonlama bitimning imzolanishi o‘zaro ishonch va sheriklikni chuqurlashtirish istagi kuchayganidan dalolat beradi.

Shavkat Mirziyoyevning Ulan-Batorga davlat tashrifi O‘zbekiston — Mo‘g‘uliston munosabatlarida yangi bosqichni boshlab beradi.

Bunda pragmatizm, o‘zaro manfaatdorlik, barqaror rivojlanish va zamonaviy muammolarga hamjihatlik bilan yondashish asosiy yo‘naltiruvchi tamoyillar hisoblanadi.

Davlat tashrifi bilan Mo‘g‘ulistonda bo‘lib turgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari va rafiqasini Mo‘g‘uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux rafiqasi bilan kutib oldi.

Suxe-Botir maydonida oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tordirdi.

Harbiy orkestr ijrosida ikki davlat madhiyalari yangradi.

Prezidentlar faxriy qorovul safi oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a‘zolarini kutdilar.

Marosimdan so‘ng O‘zbekiston Prezidenti Mo‘g‘uliston Davlat saroyidagi Faxriy mehmonlar kitobida qayd yozib qoldirdi.

Mo‘g‘uliston Davlat saroyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Mo‘g‘uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsuxning tor doiradagi va rasmiy delegatsiyalar ishtirokidagi muzokaralari bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari Mo‘g‘uliston yetakchisiga samimiy qabul hamda ushbu mamlakatga javob davlat tashrifi bilan kelish taklifi uchun minnatdorlik bildirdi.

Ikki tomonlama munosabatlar tarixida birinchi bo‘lgan ushbu tashrif ko‘p qirrali O‘zbekiston — Mo‘g‘uliston aloqalarini rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab berishi alohida ta‘kidlandi. O‘zbekiston Prezidenti Mo‘g‘uliston tomonini yaqinlashib kelayotgan Xalq inqilobi kuni bilan ham tabriklandi.

O‘zbekiston — Mo‘g‘uliston do‘stlik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Barcha darajadagi aloqalar va almashinuvlar faollashdi. Tovar ayirboshlash ko‘rsatkichlari jadal o‘tib bormoqda. Qo‘shma korxonalar soni ko‘paymoqda, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, elektron savdo, qishloq xo‘jaligi, qurilish materiallari ishlab chiqarish sohalarida ilk kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish boshlandi.

Kuni kecha ikki mamlakat ishbiarmon doiralari va idoralari vakillari ishtirokida qo‘shma biznes forumi muvaffaqiyatli o‘tkazildi, Ulan-Bator shahrida O‘zbekiston mahsulotlarining shourumiga ega savdo uyi ochildi.

Muzokaralarda iqtisodiy kooperatsiyani chuqurlashtirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Yaqin yillarda o‘zaro savdoni, eng avvalo, talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar nomenklaturasi va hajmini oshirish hisobiga karrasiga ko‘paytirish uchun salmoqli salohiyat mavjudligi qayd etildi.

Shu maqsadda imtiyozli savdo va investitsiyalarni himoya qilish to‘g‘risidagi bitimlarni qabul qilishni tezlashtirish muhimligi ta‘kidlandi.

Davlatimiz rahbari iqtisodiyotning muayyan tarmoqlarida sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish muhimligini ta‘kidladi. Hamkorlikning qator istiqbolli yo‘nalishlari ustuvor etib belgilab olindi.

Bu, avvalo, tog‘-kon sohasidagi sheriklik, jumladan, geologiya-qidiruv dasturini ishlab chiqish, xomashyo resurslari konlarini o‘zlashtirish, texnologiyalar transferi, tajriba almashish va kadrlar tayyorlash sohalarini.

Shu ma‘noda, sohadagi loyihalarni ilgari surish maqsadida Ulan-Bator shahrida O‘zbekiston geologiya vazirligining vakolatxonasi ochilgani mamnuvniyat bilan qayd etildi.

Qo‘shma klasterlar tashkil etish, go‘sh-tsut, jun va charm mahsulotlarini qayta ishlash hamda ishlab chiqarish bo‘yicha kooperatsiya loyihalarini ilgari surish asosida qishloq xo‘jaligida kompleks hamkorlikni chuqurlashtirishdan manfaatdorlik bildirildi.

Transport jihatidan o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash va yangi logistika yo‘nalishlarini rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Yil yakuniga qadar poytaxtlar o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnovlarni yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan.

Dengizga chiqish imkoniyati bo‘lmagan mamlakatlar uchun xalqaro tahlil instituti bilan birgalikda eng qisqa va samarali transport yo‘laklarini aniqlash bo‘yicha amaliy tadqiqotlar o‘tkazish taklifi bildirildi.

Faol madaniy-gumanitar almashinuvlarni davom ettirish muhimligi qayd etildi. Shu kunlarda Ulan-Bator shahrida O‘zbekiston madaniyati kunlari, san‘at va turizm tadbirlari o‘tayotgani mamnuvniyat bilan qayd etildi.

Oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni faol rivojlantirish, ajratilayotgan kvotalar doirasida mo‘g‘ul yoshlarining O‘zbekistondagi oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim olishini qayta tiklashga kelishib olindi.

Erishilgan kelishuvlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni qabul qilish yuzasidan ahdlashildi.

Ulan-Bator shahrida o‘tgan oliy darajadagi muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Mo‘g‘uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux Keng qamrovli sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiyani imzoladilar.

Shuningdek, Prezidentlar huzurida quyidagi hujjatlar imzolandi:

— o‘simliklar karantini va himoyasi, oliy ta‘lim, tog‘-kon sanoati, atrof-muhitni muhofaza qilish, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish, sog‘liqni saqlash va tibbiyot fani, jismoniy tarbiya va sport sohalarida hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlar;

— ikki mamlakat arxiv idoralari o‘rtasidagi hamkorlik to‘g‘risida bayonoma;

— O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi bilan Mo‘g‘uliston Iqtisodiyot va taraqqiyot vazirligi o‘rtasida, tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida 2026-2027-yillarga mo‘ljallangan, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi bilan Mo‘g‘uliston Madaniyat, sport, turizm va yoshlar vazirligi o‘rtasida 2025-2028-yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturlari;

— O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Mo‘g‘uliston Oziq-ovqat, qishloq xo‘jaligi va yengil sanoat vazirligi o‘rtasida qishloq xo‘jaligi sohasidagi hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha hamkorlik rejasi;

— O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi bilan Mo‘g‘uliston Madaniyat, sport, turizm va yoshlar vazirligi o‘rtasida ekoturizm sohasidagi harakatlar rejasi.

Ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Mo‘g‘uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux o‘tkazilgan muzokaralar natijalariga doir fikrlarini bayon qildilar.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqining boshida do‘st Mo‘g‘uliston xalqini yaqinlashib kelayotgan milliy bayram — Xalq inqilobi kuni bilan samimiy muborakbod etdi.

— Mo‘g‘ulistonlik do‘stlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi e‘tiborga loyiq muvaffaqiyatlari va yutuqlaridan chin dildan xursandmiz, sizning tinchliksevar tashqi siyosatini to‘la qo‘llab-quvvatlaymiz, — dedi mamlakatimiz yetakchisi.

Bugungi kunda Mo‘g‘uliston iqtisodiyoti barqaror yuqori o‘sish sur‘atlarini ko‘rsatayotgani ta‘kidlandi. Mamlakatda sanoat tarmoqlari, qishloq xo‘jaligi, infratuzilma modernizatsiya qilinmoqda. Qoraqurum shahrini keng ko‘lamli rekonstruksiya qilish ishlari boshlangan. Izcil, pragmatik va faol siyosat tufayli mamlakatning xalqaro nufuzi oshmoqda.

O‘zbekiston Prezidentining Mo‘g‘ulistonga ilk tashrifi ikki mamlakat o‘rtasidagi do‘stlik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini rivojida tarixiy voqea bo‘lgani alohida qayd etildi.

Davlatimiz rahbari tashrifining asosiy natijalaridan biri sifatida O‘zbekiston — Mo‘g‘uliston hamkorligida yangi bosqichni boshlab beradigan muhim hujjat — Keng qamrovli sheriklik to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiya imzolanganini ta‘kidladi.

Muzokaralar davomida amaliy hamkorlikning barcha asosiy masalalari va istiqbolli yo‘nalishlari atroflicha ko‘rib chiqilgan, kelajakka mo‘ljallangan aniq vazifa va rejalarni belgilab olingani aytiladi.

2024-yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan sammitdan so‘ng barcha yo‘nalishlarda aloqalar faollashgan qayd etildi. Joriy yil fevral oyida Hukumatlararo komissiyaning birinchi yig‘ilishi samarali o‘tkazildi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti va boshqa ko‘p tomonlama tuzilmalar doirasida yaqin hamkorlik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlashni davom ettirishga kelishib olindi.

O‘zbekiston Prezidentining so‘zlariga ko‘ra, muzokaralarda asosiy e‘tibor iqtisodiy hamkorlikka qaratildi. Yaqin yillarda tovar ayirboshlash hajmini, eng avvalo, xaridorgir mahsulotlar nomenklaturasi va hajmini kengaytirish orqali bir necha barobar oshirish vazifalari belgilandi. Ulan-Batorda ko‘rgazma zaliga ega bo‘lgan O‘zbekiston savdo uyi ochilishi bu ishlar uchun amaliy asos bo‘lishi ta‘kidlandi.

Tashrif arafasida O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston tadbirkorlarining biznes forumi va uchrashuvlari muvaffaqiyatli o‘tkazilgani, yangi shartnoma va bitimlar imzolanganini mamnuvniyat bilan qayd etildi. Davlat rahbarlari bundan buyon ham tadbirkorlik uchun barcha sharoitlarni yaratish va ularning ishbiarmonlik tashabbuslarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga kelishib oldilar.

Shu munosabat bilan imtiyozli savdo va investitsiyalarni o‘zaro himoya qilish to‘g‘risidagi bitimlarni eng qisqa muddatlarda qabul qilishga kelishildi.

Bundan tashqari, muzokaralar chog‘ida ikki mamlakat iqtisodiyotlari bir-birini samarali to‘ldirishi mumkin bo‘lgan tarmoqlarda sanoat kooperatsiyasining aniq yo‘nalishlari belgilab olindi.

Tomonlar mintazam ravishda o‘zaro konsertlar, ko‘rgazmalar, kino namoyishlari uyushtirish, festivallarda ishtirok etishga kelishib oldilar.

Erishilgan kelishuvlar va imzolangan bitimlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish uchun ikki mamlakat hukumatlari tomonidan keng qamrovli “yo‘l xaritasi” qabul qilinishi ta‘kidlandi.

So‘zining yakunida davlatimiz rahbari Mo‘g‘uliston Prezidentini rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonga kelishga taklif etganini ma‘lum qildi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Mo‘g‘uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux rafiqalari bilan birgalikda ikki mamlakat san‘at ustalarining konsertida ishtirok etdilar.

Bugun davlat rahbarlarining irodasi va sa‘y-harakatlari tufayli xalqlarimiz yanada yaqinlashdi, davlatlararo munosabatlar keng qamrovli sheriklik darajasiga ko‘tarildi.

Qo‘shma konsert O‘zbekiston — Mo‘g‘uliston do‘stligi hamda ikki tomonlama ko‘p qirrali munosabatlarda yangi bosqich boshlanganining navbatdagi ifodasi bo‘ldi.

Iste‘dodli san‘atkorlar ijrosidagi kuy-qo‘shiqlarda madaniyatlarimizning boyligi, rang-barangligi va o‘ziga xosligi mujassam bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Mo‘g‘ulistonga davlat tashrifi davom etmoqda.

O‘ZA

BUGUNIDAN ROZI, ERTASIDAN XOTIRJAM YASHASH SAODATI

Buyuk o‘zbek yo‘li



Shu yil 19-20-iyun kunlari davlatimiz rahbari Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyurib, bajarilgan ishlarni sarhisob qildi. Kelgusi rejalarni, katta loyihalarga start berdi. Xo‘sh, ushbu o‘zgarishlardan keyin viloyat ahlining ko‘nglidan qanday o‘ylar kechmoqda? Umuman, o‘tgan qisqa davrda viloyatda aholi turmush tarzi qanchalik o‘zgardi? Shu kabi savollarga javob topish uchun qashqadaryolik mehnat faxriysi, “Do‘stlik” ordeni sohibi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi Shodiyor XO‘JANAZAROVga yuzlandik.

— Yoshim saksondan oshdi. Ellik yildirki, xalq orasidaman, — deydi Shodiyor bobo. — So‘nggi yillarda voha butunlay yangilandi. Har bir sohada o‘zgarish, yangilanishlar bir daqqa bo‘lsa-da, to‘xtagani yo‘q. Birgina misol, maktabgacha ta‘lim yo‘nalishini oling. Juda katta o‘zgarishlar bo‘lyapti. Tahlilga ko‘ra, 2017-yilda viloyatda bor-yo‘g‘i 326 ta bog‘cha bo‘lgan. Qamrovi atigi 13,1 foiz edi. Bugun bu ko‘rsatkich 66 foizdan oshdi. Yil yakunigacha 72 foizga yetishi aytilmoqda. O‘tgan qisqa vaqtda erishilgan bu natija keskin o‘shishdir.

Davomi 3-betda



Mamlakatimizda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida aholi farovonligini oshirish, jumladan, yurtdoshlarimizga munosib turmush va ish sharoiti yaratish, farzandlarimizning sifatli ta‘lim va tibbiy xizmatdan foydalanishiga erishish, iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash borasida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayni maqsadda keyingi 7-8 yilda barcha soha va tarmoqda kechgan yangilanish jarayoni bugun qanday yuksak samara berayotganini aksariyatimiz ko‘rib, hayotimiz misolida sezib turibmiz, albatta.

Ayni paytda yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi yangilanishlar, ularning yo‘nalishi, maqsadi, qamrovi, jamiyatimizga, davlatga manfaat ko‘pchilikka qiziq, nazarimda. Shu ma‘noda, mamlakatimizda yurt taraqqiyoti va aholi farovonligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi yo‘nalishlardagi ba‘zi islohotlarga to‘xtalib o‘tishni lozim topdik.

Birinchi yo‘nalish — korrupsiyaga qarshi kurash. Prezidentimiz Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida islohotlar hal qiluvchi bosqichga kirayotgan hozirgi vaqtda yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo‘yicha ishlarga baho berib, kelgusi vazifalarni aniq belgilab olish zarurligini ta‘kidladi.

Davomi 4-betda

HOKIMLAR – PREZIDENT VA DAVLAT SIYOSATINING NATIJADORLIGINI HUDUDLARDA TA’MINLOVCHI ISHONCHLI VAKIL



Munosabat

Shu yil 16-iyun kuni Prezidentimiz raisligida islohotlar natijadorligi, hududlarda ishlarning borishi va aholini qiynayotgan masalalar tahlili bo'yicha videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Tanqidiy-tahliliy ruhda o'tgan yig'ilishda yurtimizning turli hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot, tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi, sanoat sohalarida aholini ish bilan ta'minlash, kambag'allikdan chiqarish, turmush tarzini yaxshilash borasida qilinayotgan ishlar muhokama qilindi. Ayniqsa, mahalliy hokimiyat idoralari faoliyatiga chuqur nazar tashlanib, tizimda yangi tashabbus va mexanizmlarni joriy etgan holda uning samaradorligini oshirish belgilandi. Davlatimiz rahbari "Tuman bo'g'ini samarali ishlamas, yuqoridam qanday topshiriq tushirilmasin, ko'zlangan maqsadlarga erishib bo'lmaydi", dedi.

Haqiqatan, odamlar boshiga bir ish tushsa, yana ko'plab masalalar yuzasidan ham hokimlikka murojaat qiladi. Tumanning o'ziga xos jihatlarini mahalliy hokimiyat vakillari qadar hech kim yaxshi bilmaydi. Chunki ular shu hudud ijtimoiy hayotining ichida yashaydi. Tuman hokimining fidoyiligi, bilimi, salohiyati hududni taraqqiy ettirish yoki u yerdagi juz'iy kamchilik va muammolarni bartaraf etishda qanchalar muhimligi eng qiyin vaziyatlarda o'zini namoyon etadi.

Hayotiy misol. 2023-yil 6-fevralda Turkiyada talafotli zilzila sodir bo'ldi. Tabiiy ofat natijasida ko'plab insonlar halok bo'ldi, yirik shaharlar vayronaga aylandi. Yer qimirlashi markazidan ko'p ham olis bo'lmagan Erzin shahrida esa bitta ham bino qulamadi, hech kim halok bo'lmadi. Bu voqea "Erzindagi mo'jiza" nomi bilan ommaviy axborot vositalari hamda jamoatchilik tiliga tushdi.

Taqqoslash uchun aytamiz, bu shahardan 80 kilometr uzoqlikdagi Nurdagi, 110 kilometr masofadagi Xatay shaharlari butkul vayronaga aylandi. Qahramonmarash hududida 45

mingdan ziyod aholi nobud bo'ldi. Barcha bu mo'jizaning sababi bilan qiziqdi. Shunda Erzin hokimi yer qimirlashidan uylarning birortasi ham qulamagan mo'jiza emasligi, ularni qurishda barcha shaharsozlik, arxitektura qoidalariga amal qilingani, korrupsiya, tanish-bilishchilikka yo'l qo'yilmaganini qayd etdi. Sifat talablariga javob bermaydigan ko'p qavatli binolarni hokimning shaxsan o'zi buzdirib tashlaganini ta'kidladi. Ko'pgina mutaxassislar uning fikrini tasdiqladi va hokim qahramonga aylandi.

Voqeadan ham ma'lum, tuman hokimining salohiyati, halol va fidoyiligi hudud rivoji, aholi farovonligida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Shu bois, rivojlangan mamlakatlar, jumladan, AQSHda hudud rahbarlariga boshqaruvda katta vakolatlar berilgan.

Videoselektorda davlatimiz rahbari ham yangi tizim bo'yicha mahalliy hokimiyat vakillarining vakolatlari kengayishi, fidoyi kadrlar rag'batlantirilib, mas'uliyatsizlariga nisbatan qat'iy choralar ko'rilishini qayd etdi. Bu tizim avval Surxondaryo viloyatida joriy etilib, so'ngra mamlakat miqyosida yo'lga qo'yiladi.

Tuman hokimlari o'z jamoasi bilan ishlaydi

Yangi tizimga ko'ra, iqtisodiyot va moliya, investitsiya, qishloq xo'jaligi, bandlik, qurilish, ekologiya, madaniyat, oila va xotin-qizlar, yoshlar masalalari bo'yicha 9 ta davlat idorasingan tuman bo'limi hokimlik tizimiga o'tib, ulardagi jami shtatlarni taqsimlash, xodimlarni ishga olish va bo'shatishni hokim hal qiladigan bo'ldi. Bu degani, tuman hokimi sohalariga o'zi ishongan malakali

kadrlarni ishga oladi va ularning faoliyati samaradorligi, shaffoqligiga shaxsan o'zi javobgar bo'ladi.

Albatta, bu yangi mexanizm tumandagi islohotlar jadallashishiga xizmat qiladi. Xususan, aholi muammolarini joyida hal qilish imkonini beradi. Hududiy miqyosda bartaraf etiladigan masalalar uchun respublika tashkilotlaridan ruxsat olishga hojat qolmaydi. Masalan, suvsizlikdan qiynalayotgan kichik yer maydoniga suv chiqarish, aholi bandligini ta'minlash, yoshlar vaqtini mazmunli o'tkazishi bo'yicha hududiy miqyosda hal etsa bo'ladigan tashabbus va loyihalarni vazirlik darajasidagi yuqori tashkilotlarga murojaat qilib o'tirmay, joyida hal qiladi.

Shuningdek, ilgari bir hududda muammo chiqsa, mas'ul vazirlik mahalliy hokimiyatni, tuman hokimi esa mas'ul vazirlikni ayblardi. Endi unday bo'lmaydi, vakolatlari kengayayotgan tuman hokimi hududdagi muammolarning birlamchi javobgari hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, imtiyoz va rag'bat berilib, vakolatlar kengaytirilmoqda, ammo majburiyat va mas'uliyat ham yoddan chiqqani yo'q.

Yig'ilishda tumanlar ixtiyorida qoladigan mablag' manbasi ko'paytirilishi, hokimda 4 nafar o'rinbosar bo'lishi qayd etildi. Tuman (shahar)ning rivojlanish rejasiga qarab, qaysi soha bo'yicha o'rinbosar bo'lishini uning o'zi belgilaydi. Hokim o'rinbosariga aniq vazifalar yuklatilib, har bir vazifa va funksiyasi mablag'i bilan mustahkamlanadi. Ya'ni tuman hokimlari hududning infratuzilmasi, joylashuvi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlariga qarab, erkin, kreativ tashabbuslari bilan ishlashiga shart-sharoit va keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ulardan birgina talab — hududni taraqqiy ettirib, aholini rozi qilish so'ralaypti.

Endi hokim va uning o'rinbosarlari samaradorlik ko'rsatkichlarini to'liq bajarsa, keyingi yil hududga beriladigan mablag' 10-15 foiz ko'paytiriladi. Aks holda, mablag' oshirilmay, mas'ul rahbar ishdan ketishi qat'iy belgilandi. Ushbu tartib kadrlarni faollikka chorlaydi. Ular endi yuqori tashkilotlardan keladigan topshiriqni hududga shunchaki joriy etuvchi emas, tumanning ijtimoiy-iqtisodiy

salohiyatini ko'tarish uchun yangi loyiha va tashabbuslarni ilgari surishi zarur.

Oldingi tizimda ayrim tuman hokimlari xato qilmasam ishdan ketmayman degan tushuncha bilan hudud taraqqiyoti uchun hech qanday yangilik kiritmasdi. Hudud esa videoselektor yig'ilishlarida doimiy ravishda rivojlanishdan ortda qolayotgan tuman sifatida qayd etilardi. Ammo mahalliy hokimiyat rahbariga xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymagani uchun dakki berish yoki hayfsan bilan cheklanilardi.

Endi unday bo'lmaydi. Tuman hokimlari o'z hududini rivojlantirishi qat'iy talab qilinmoqda. Ya'ni hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, aholi roziligi hokimlar faoliyatining eng asosiy o'lchov mezon, bahosi bo'ladi.

Yana bir muhim yangilik — ishchan va jozibador muhit yaratish uchun 1-avgustdan barcha viloyat va tuman hokimliklarida ish haqi oshiriladigan bo'ldi. Xodimlarga ishiga qarab oylik ustama va qo'shimcha bonuslar berilishi ularni yanada faol bo'lishga undaydi. Bir so'z bilan aytganda, yangi tartibga ko'ra salohiyati yuqori, fidoyi kadrlar tuman taraqqiyotiga qo'shgan hissasiga yarasha rag'batlantiriladi. Ammo o'ziga berilgan katta imkoniyatdan to'laqonli foydalana olmagan tuman hokimlari, mahalliy hokimiyat vakillariga boshqa imkoniyat berilmaydi.

Xalqqa uyg'ok rahbarlar kerak

Aytishlaricha, mang'it hukmdorlari orasida amir Ahadxon ancha odil va tadbirkor bo'lgan ekan. O'shaning zamonasida Shohiaxsi guzarining Kalg'aylar to'porida bir kampir yasharkan. Bola-chaqalari yoshlikda o'lib ketgan, bisotida birgina echkisi bor ekan. Echki bir korson sut berarkan, kampir shu bilan tirikchilik qilarkan. Bir kuni uning echkisini o'g'irlab ketishibdi. Kampir guzar vakiligiga aytibdi, eshitmabdi. Oqsoqolga aytibdi, mirshabga boring, debdi. Mirshabga, undan raisga bildiribdi. Echkining daragi topilmabdi. Eng oxirida kampir hassa tayanib, munkillabgina arkka qarab yo'l olibdi.

Davlatimiz rahbari raisligida 16-iyun kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida mamlakatimizdagi islohotlar natijadorligi sarhisob qilinib, hududlarda ishlarning borishi tanqidiy ko'rib chiqildi va aholini o'ylantirayotgan masalalar yechimi yuzasidan aniq vazifalar belgilab berildi.

“ISLOHOTLAR SHTABI” JOYLARDA SAMARALI FAOLIYATNING MUHIM ORGANIGA AYLANADI

Har bir hokim hududidagi, vazirlar esa tarmog'idagi imkoniyat va xavflarni oldindan ko'ra bilib, proaktiv, ya'ni topshiriq kutmasdan, o'zi tashabbus ko'rsatib ishlashga o'tishi, aholi va biznes vakillari bilan muloqotni yanada kuchaytirib, ular so'rayotgan masalalarni hal qilish borishi rahbarlarning asosiy vazifasi bo'lishi zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Vazirlik va hokimliklar ishidagi muammolarni tahlil qilish asosida berilgan topshiriq va rejalarga erishmaslikning asosiy sababi sifatida boshqaruv mexanizmlarini yanada takomillashtirish yuzasidan vazifalar belgilandi.

Barcha islohotlarning samarasi, eng avvalo, quyi bo'g'in, ya'ni tuman darajasiga bog'liqligi, ular samarali ishlamas ekan, yuqoridam qanday topshiriq tushirilmasin, ko'zlangan maqsadlarga erishib bo'lmagligi inobatga olinib, tumanda ishini tashkil etish, yondashuv, qolaversa, boshqaruv tizimini yangicha uslubda tashkil etish bo'yicha vazifalar qo'yildi.

“

Tuman hokimi boshchiligidagi yuqorida qayd etilgan 9 ta idora xodimlari, Savdo-sanoat palatasi, bank, soliq, kadastr vakili va yetakchi tadbirkorlardan iborat “Islohotlar shtabi” tuzilmog'ida. U tumandagi mahallalar kesimida loyiha, infratuzilma, moliyaviy manba, kadrlar masalasini qamrab olgan tumanning uch yillik rivojlanish dasturini tayyorlaydi va uning ijrosi monitoringini yuritadi. Kelgusi yil uchun budget, infratuzilma, ishlab chiqarish, xizmat, investitsiya va bandlik dasturlari shu asosda tasdiqlanadi.

Arkoni davlat u desa, bu debdi, xullas, qaysar kampirni amir Ahadxonning huzuriga olib kirishga majbur bo'lishibdi.

Amir undan arzini so'rabdi: “Nima gap, ena?”. “Bisotimda bittagina echkim bor edi, shuni o'tgan kecha o'g'irlab ketdi...”. Amir birpas o'ylab turib: “E, enam-a, enam, uxlab qolibsizda-a?” deya miyig'ida kulibdi. Kampir amirga nursiz ko'zlarini qadab: “To'g'ri, uxlab qolganim rost, lekin siz — mamlakat podshosi uyg'oq deb o'ylagan edim. Agar siz ham uxlaganingizni bilganimda zinhor uxlamas edim”, debdi.

Ahadxon bu gapdan qattiq ta'sirlanibdi. O'sha zahoti butun arkoni davlatni chaqirib, echkini topishga uch kun muhat beribdi. Oradan ikki kun o'tgach, echki Hazora degan qishloqdan topilibdi. Lekin o'zini emas, po'stagini topishib, kampirga ko'rsatishibdi. U po'stakni tanib, bag'riga bosibdi. Amirning hukmi bilan o'g'ri jazolanib, kampirga yaxshi bir hovli-joy, bitta govmish sigir berilibdi...

Ne'mat Aminovning “Bir asr hikoyati” kitobida keltirilgan ushbu rivoyatda mang'it hukmdorlari orasida amir Ahadxon odil va tadbirkor deb ta'riflanmoqda. Bu ulug' nisbatning berilishi sababi hukmdorning xalq dardini tashvishi, muammosi va murojaatini e'tiborsiz qoldirmay, qanday masala bo'lishidan qat'i nazar, jiddi jahd bilan uni hal etishga urinishidir.

Xalqni rozi qilishni asosiy maqsad qilib qo'ygan davlatimiz rahbari ham, birinchi navbatda, aholi murojaatlarini tinglash va ularni joyida, tezkor hal etishga alohida urg'u beradi. Prezidentimiz “Har bir murojaat ortida inson taqdiri, uning dardi va umidi turganini unutmasligimiz kerak. Xalqning dardi bilan yashash biz uchun majburiyat”, deya bot-bot ta'kidlaydi. Prezidentlik faoliyatining ilk pallalari — 2016-yil 28-dekabrda “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni bilan Prezident xalq qabulxonasi, Prezident virtual qabulxonasi kabi tashkilotlar faoliyatini yo'lga qo'yishi ham so'zimizni isbotlaydi. Ushbu tizim ko'p yillar xalq bilan davlatni bog'lab turuvchi oltin ko'priq vazifasini bajardi. Ammo bugunga kelib,

tizimda yangilanish, o'zgarishlar qilish fursati yetdi.

Yig'ilishda Xalq qabulxonalari aholi dardini eshitib, masalalarni hal qilish o'rni murojaatlarni davlat tashkilotlariga taqsimlovchi vositachiga aylanib qolgan, joylardagi muammolar hal bo'lmagani uchun ijtimoiy tarmoqlar orqali chiqishlar ko'paygani qayd etildi. Mingga yaqin yurtidoshimiz Prezidentning shaxsiy qabulini so'rayotgani aytiladi. Bunday holat yuz berishiga odamlarning muammolari hududlardagi mas'ullar tomonidan eshitilmayotgani, kichik kamchiliklarni bartaraf etish ham ortga surilayotgani sabab bo'ladi.

Yuqoridagi hikoyada kampir, avvalo, guzar vakili, oqsoqol, mirshab, raisga borib dardini aytadi. Ular yechim ko'rsata olmagani bilan so'nggi ilinj sifatida amir Ahadxonning yoniga boradi. Yechimsiz murojaatlar ko'payishi ham bu borada vaziyat ijobiy emasligini ko'rsatadi. Jumladan, o'tgan yili virtual qabulxona va xalq qabulxonalarga yuborilgan murojaatlarning 55 foizi ijobiy hal etilmagani so'zimizni isbotlaydi.

Davlatimiz rahbari shu bois, sohani tubdan isloh qilish qaroriga keldi. Endi Xalq qabulxonalari tarkibi fidoyi mutaxassislar bilan to'ldiriladi, unga viloyat va tuman hokimining o'zi rahbarlik qiladi. Aynan hokimlarning bu tizimga bosh qilib qo'yilishining sababi, odamlar muammosi bo'lsa, birinchi bo'lib hokimlik eshigini qogadi. Shuningdek, hokimlar hududlarda Prezident va davlat siyosatini tamsil etuvchi birlamchi shaxs hisoblanadi.

Yig'ilishda hokimlarga har kuni ishi aholi dardi va tashvishini eshitishdan boshlanib, bugun tug'ilgan muammoni keyinga o'tkazmay, murojaatni boshqa idoraga yubormay, shu jorneying o'zida hal qilish topshiriq'i berildi. Buning uchun esa tuman hokimining vakolatlari kerakli darajada kengaytirilishi qayd etildi.

Xullas qilib aytganda, yangi mexanizmga ko'ra, viloyat, tuman hokimlari tom ma'noda Prezidentimizning hududlardagi eng ishonchli vakiliga aylanmoqda. Ulardan mahalliy aholi dardi bilan yashash, tongda xalq murojaatlari bilan uyg'unlash, o'y-xayoli faqatgina hududni yuksaltirish bo'lishi talab etilmoqda.

Sanjar ESHMURODOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

VAZIFA ANIQ – XALQ XIZMATIGA KAMARBASTALIK



Nuqtayi nazar

Joriy yil 16-iyunda Prezidentimiz boshchiligidagi islohotlar natijadorligi, hududlarda ishlarning borishi va aholini qiynayotgan masalalar tahlili bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi tom ma'noda tarixiy voqea bo'ldi. Unda davlat xizmatchisining o'rni va mas'uliyati hozirgi davrga mos shaklda aniq ko'rsatib berildi. Prezidentimiz har bir samalani kuyinchaklik bilan, yurakdan o'tkazib tushuntirib berishini yig'ilish davomida o'zgacha hayajon bilan tingladim.



Nazirbek RAHMONOV, Zarafshon shahri hokimi

Notinch dunyomizda yana bir mojarolar o'chog'i avj olgani mintaqamizga ham ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Buni har bir mas'ul teran anglashi zarurligi ta'kidlandi. Mazkur fikrlarni chuqur mulohaza qilib, shahrimizdagi imkoniyatlardan to'la foydalanish choralarini oxtara boshladik. Endi bizdan xavflarni oldindan ko'ra bilish, proaktiv, ya'ni topshiriq kutmay, tashabbus ko'rsatib ishlashimiz zarur. Muhimi, aholi va biznes bilan muloqotni yanada kuchaytirib, ular so'rayotgan masalalarni tez-tez hal qilish berish biz — rahbarlarning asosiy vazifamizdir.

Yig'ilishda bandlik, kambag'allik, eksport, investitsiya va rahbarlarning ish samaradorligiga baho beruvchi asosiy ko'rsatkichlar bo'lishi alohida ta'kidlandi. Shundan kelib chiqib, bu boradagi ishlariimizni butunlay tanqidiy ko'rib chiqaymiz. Ushbu yo'nalishlarda erishilgan natija bilan birga bugungi davrga mos ijobiy o'zgarishlar yasaydigan aniq reja va vazifalarni belgilab oldik. Shahrimizni kambag'allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirishga bor imkoniyat va salohiyatimizni yo'naltiramiz.

Prezidentimiz vazirlik va hokimliklar ishidagi muammolarni tahlil qilib, har bir tumandagi 40 dan ziyod tashkilotda o'rtacha 500 xodim ishlashi, lekin tuman tashkilotlari oddiy-oddiy masalalarni hal qilish uchun viloyatdan, ular esa respublikadan ruxsat olishi kerakligini ta'kidladi. Haqiqatan, bir qarashda bilinmaydigan, ammo ishimizga jiddiy to'siq bo'ladigan holatlar bor edi. Bu bevosita aholimiz kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatardi. Ushbu masalaga ijobiy yechim berildi. Endi hudud rahbarlari ko'pgina masalalarni mustaqil hal qilish imkoniga ega bo'lyapti. Ushbu o'zgarish

“

Endi muammolarni “ertaga”ga qoldirish, murojaatlarni “boshqa idora”ga yuborib qutulamiz degan qarash bo'lmaydi. Chunki eng katta mas'uliyat aynan bizga yuklatildi.

yo'l qo'yayotgani ta'kidlandi. Bundan to'g'ri xulosa chiqargan holda, kelgusi faoliyatimizda ajratilgan mablag'lardan o'z vaqtida to'g'ri va samarali foydalanamiz.

Yana bir muhim yangilik — ishchan va jozibador muhit yaratish uchun 1-avgustdan barcha viloyat va tuman hokimliklarida ish haqi oshiriladigan bo'ldi. Bu bilan bizni ko'pdan beri qiynab kelayotgan kadrlar qo'nimsizligi va yetishmasligi muammosiga yechim topildi. Bu ham aslida xalqni rozi qilish yo'lida muhim qadam. Chunki kadrlar qo'nimsizligi ishlar izchil va samarali bo'lishiga xalal beradi. Masalan, kecha murojaat bilan kelgan fuqaro ertaga o'sha mas'ulni joyidan topa olmaydi. O'mida boshqa odam ishlayotgan bo'ladi. U yangi mas'ulga masalani yana boshidan tushuntirishga majbur. Oqibatda ikki orada turli tushunmovchiliklar kelib chiqadi. Yuqori oylik esa nafaqat kadrlarni

ko'prigini yanada mustahkamlaydi. Chunki inson uchun eng muhimi uni eshitishlari, dardiga quloq tutishlari va muammosi yechim topishidir. Shunday paytda Xalq qabulxonalari faqat ariza qabul qiladigan idora emas, balki ijobiy o'zgarishlarni boshlab beradigan muhim ijtimoiy maydonga aylanmoqda.

Tegishli vazirliklarning 9 ta tuman-shahar bo'limlarni hokimliklar tuzilmasiga o'tkazilgani, 10 ta manbadan tuman, shahar mahalliy budgetlarga tushmalar olib berilayotgani muhim ahamiyatga ega. Umuman, yig'ilishda ilgari surilgan takliflar, berilgan aniq topshiriq va vazifalar uchun imkoniyatlar eshigini ochdi. Bu yangi O'zbekistondagi inson qadriini ulug'lashga qaratilgan islohotlar ko'laminu yanada kengaytiradi. Natijada xalqimizning ertangi kunga ishonchi mustahkamlanib, yaratuvcianlik kayfiyati oshadi.

BUGUNIDAN ROZI, ERTASIDAN XOTIRJAM YASHASH SAODATI

Boshlanishi 1-betda

Yaxshi bilaman: ilgari hozirgi Ko'kdala tumani hududida atigi ikkita bog'cha bo'lardi. Ular ham hashar yo'li bilan qurilgan edi. Bir oy ishlasa, uch oy yopiq turardi. Shu atrofda o'g'il-qizlar bog'cha nimaligini bilmay katta bo'ldi. Prezidentimiz tashabbusi bilan Ko'kdala alohida tumanga aylandi. U yerda bog'chadan tortib, iqtisodiyot tarmoqlarigacha bo'lgan barcha jabhada keskin o'zgarishlar yuz berdi.

Yodingizda bo'lsa, 2022-yili aprelda



Prezidentimiz viloyatga tashrifini Ko'kdala tumanidan boshlagan edi. O'shanda hudud yangi tuman bo'lishi uchun qaror endigina chiqqandi. Davlatimiz rahbari uch yillik dastur ishlab chiqib, shu borada ishlash haqida topshiriq bergandi. Ushbu dasturda, birinchi navbatda, yangi ta'lim muassasalari barpo etilishi borasida alohida ko'rsatma bor edi. Natijada bugun Ko'kdalada 22 ta zamonaviy bog'cha qad rostladi. Maktablarga ham katta e'tibor qaratildi. Ko'pi ta'mirlandi, yangilari barpo etildi. Sport majmualari qurildi. Hatto bugun chet eldan o'qituvchilar kelib, ko'kdalalik bolalarga dars beriyapti. Bu Uchinchi Renessans sari dadil qadam, taraqqiyotning mustahkam poydevoridir.

— O'tgan hafta Prezidentimiz Qashqadaryoga tashrif chog'ida Ko'kdala tumanida bo'lib, uch yillik dastur ijrosi bilan tanishdi. Bir paytlar yantoqzor bo'lgan joy ko'rkam shaharga aylandi. Ilgari aholi tuman markaziga borish uchun bir kun vaqt sarflardi. Bugun o'sha zahmatning barchasi ortda qoldi. Shunday emasmi?

— Albatta, uch yil oldingi holat bilan bugungi Ko'kdalani qiyoslasak, misli ko'rilmas ishlar ro'yobga chiqqaniga guvoh bo'lamiz. Hech



kimning xayoliga kelmagan o'zgarishlar ro'y berdi. Katta shahar shunchaki paydo bo'lgani yo'q. Buning ortida tinimsiz mehnat, izlanish va keng imkoniyatlar bor. Alohida aytish kerak, tuman qisqa vaqtda tarvuz yetishtirish xabiga aylandi. Bugun nafaqat yurtimiz, balki xorijda ham Ko'kdalaning tarvuzi brend darajasiga chiqdi.

Ko'ryapsizmi, uch yil oldingi ko'rsatmalar, boshlangan o'zgarishlar bugun tuman aholisini ishli qildi. Ayni kunlarda tuman dalalariga nazar tashlagan kishining havasi keladi. Ko'kdalaning tarvuzi uchun yuk mashinalari turnaqator navbat kutyapti. Bu — daromad, elga baraka kelyapti degani.

Masalan, o'tgan yili tumanda 6 million dollardan ziyodga tarvuz eksport qilingan. Bu yil hozirga qadar eksport qiymati 14 million dollardan oshdi. Uzoqni o'ylab qilingan loyiha samara berdi. Hozir 21 ming gektar yerga ertaki va kechki tarvuz ekilgan. Gektariga o'rtacha 4 kishi band bo'lsa ham jami 80 mingdan ziyod kishi shu dalalarda ishlab oila boqyapti. Shuncha odamning turmush tarzi yaxshilaniib, oilasi farovon bo'lyapti.

Endi qo'shimcha imkoniyatlar ham ishga solinyapti. Xususan, hozir 21 ming gektar yerdan foydalanilmoqda. Kelgusida uni 50 ming gektarga yetkazish vazifasi qo'yildi. Shuningdek, faqat tarvuz bilan cheklanib qolmay, kartoshka, sabzi, piyoz kabi poliz mahsulotlarini ekish belgilandi. Bu tufayli ham yangi ish o'rinlari ochildi. Birgina oilada ota uydin uzoqqa ketmay, iqtisodiy farovonlikka erishishi, barcha ijtimoiy masalalarga yechim topishi mumkin.

— Mutaxassislar e'tirofiga ko'ra, vohada sog'liqni saqlash tizimida ham ijobiy o'zgarishlar bo'y ko'rsatmoqda. Bugun qashqadaryoliklar tibbiyotdan qanchalik rozi bo'lyapti?

— Davlatimiz rahbari tashrif asnosida "Afrosiyob" poyezdida Shahrisabzga bordi. Yo'l davomida bir guruh faollar bilan suhbatlashib ketdi. Borgan joylarida ham imkon qadar oddiy odamlar bilan uchrashib, ularning kayfiyati, qashqadaryoliklarning yashash tarzi qanday ekanini bilan qiziqdi. Faollar bilan odamlarni rozi qilish, buning uchun qanday islohotlar zarurligi borasida fikr almashildi. Bugun mamlakat yetakchisi odamlarni rozi qilish siyosatini yuritmoqda. Bu hayotda ham o'z natijasini ko'rsatyapti.

Uzoqqa bormang, bundan besh-olti yil avval elektr energiyasi ta'minoti katta muammo edi.



Joriy yilda Kitob tumani, Qarshi va Shahrisabz shahri ishsizlik va kambag'allikdan xoli hududga aylantiriladi. Shuningdek, yil oxiriga qadar 470 ming kishini band qilish, 150 ming fuqaroni kambag'allikdan chiqarish rejasi qilingan. Albatta, buning uchun aniq loyihalar ishlab chiqilgan.

O'shanda chiroq bir soat yonsa, to'rt soat o'chiq bo'lardi. Ayniqsa, shifoxonalarda ahvol juda achinarli edi. Shunday vaziyatda bemorlarga xizmat ko'rsatish haqida gapirib bo'ladimi? Bugun bu gaplar ertakka aylandi. Ko'nglimizga ham, uyimizga ham nur kirdi. Ishlar to'xtab qolgani yo'q, energiya samaradorligini oshirish borasida ulkan ishlar bajarilmoqda. Quyosh panellari o'rnatilib, GESlar qurilyapti.

Endi yangi klinikalar haqida gapirsak. Qilingan ishlarni ko'rib, qoyil qolmay iloj yo'q. Ana, Shahrisabzda ishga tushirilgan "Oqsaroy" ko'p tarmoqli kardiologiya markazini qarangi! Orzularni amalga oshiradigan maskan bo'libdi. Klinikada bir vaqtning o'zida 4 ta va kuniga 25 tagacha yuqori texnologiyali kardiolarholik amaliyotini o'tkazish mumkin ekan. Shuningdek, stendlash, aorta-koronar shuntlash, tug'ma nuqsonlarni bartaraf etish, endoprotezlash kabi muhojalara samarasi ancha yuqori. Ayatlaganlarim shu paytgacha faqat Toshkentda, unda ham faqat birgina joyda qilingan muhojalalar.

Bir paytlar yuragimda jarrohlik amaliyotini o'tkazishga to'g'ri keldi. Shunda butun mamlakat bo'ylab izlab, bunga imkoniyat yo'qligini bilganman. Oxiri xorijdan shifo izlashga majbur bo'lganman. O'shanda davolanish uchun to'rt marta chet elga chiqqanman. Yo'l yurish bemorga osonmas. Ana shu davrlarda qachondir shu amaliyotlar bizda ham bajarilarmikan deb

orzu qilganman. Men kabi ozurda yurganlar ko'p edi. Orzumizga erishdik. Islohot inson qadri uchun bajarilayotganining hayotiy isboti shu, meningcha.

Davlatimiz rahbari klinika faoliyati bilan tanishish chog'ida mas'ullarga xuddi shunday shifoxonalarni barcha viloyatda bunoyd etish haqida ko'rsatma berdi. Endi odamlar shifo istab, davlatma-davlat sarson bo'lib yurmaydi.

Viloyatimiz rivojiga hissa qo'shayotgan yana bir muhim soha — turizm haqida gaplashsak. Qadimdan Shahrisabz dunyoni o'ziga qaratgan jozibador maskan bo'lgan. Purviqor tog'lari, so'lim tabiati, bog'lari bilan ajralib turgan. Bugun Mirakidagi bunyodkorlik ishlari tahsinga sazovor. U yerda ishga tushgan yirik loyihalar, jumladan, dor yo'li, suvda suzish joyi, velosiped va piyodalar uchun ekoyo'lak, bolalar maydonchasi, nuroniyalar maskani, ko'ngilochar bog', oilaviy mehmon uylari, ko'chma savdo shoxobchalari kabi inshootlar bir-biridan ajoyib. Kishining bahri dilini ochadi. Kelgan odam yana kelsam, deydi. Miroqib hordiq chiqaradi. Ilgari bu yerga dam olishga kelganlar uchun sharoit yo'q edi. Shunday so'lim joydan hamma o'z bilganicha foydalangan. Daryo sohili ham betartib bo'lgan. Bugun esa bu manzil yaxlit turizm klasteriga aylandi.

Shu manzildagi agroturizm majmuasi ham o'ziga xos ajoyib maskanga aylangan. Adirlidagi 520 gektar maydonga "terassa"

usulida Fransiyadan keltirilgan eng sara navli gilos, uzum va olma ekilgan. Tomchilatib sug'orish yo'lga qo'yilgan. Bir qarashda o'rmon deysiz. Kelajakda ushbu bog'dan 7500 tonna hosil olish kutilmoqda. Eksport quvvati 5 million dollarga yetishi xomcho't qilingan. Muhimi, 100 ta doimiy va mingdan ortiq mavsumiy ish o'rmi ochilgan. Endi tog'li tumanlarda shunday bog'lar yanada ko'paytirilib, aholiga bo'lib beriladi. Shu orqali odamlarga daromad manbai yaratiladi.

Bundan tashqari, G'elon qishlog'ida qilinadigan ishlar kishining havasini keltiradi. Bundan to'rt-besh yil oldin G'elonga borish uchun yo'lga bir kun vaqt ketardi. Sababi u tomonga "Niva"dan boshqa mashina borolmasdi. Bir kunda bir bor qatnaydigan yo'nalisli taksgia ulgurmasangiz, ertani kutishga to'g'ri kelardi. Qishloqqa borguncha yurak hovuchlab ketardingiz. Asfaltlash tugul, yo'l durustroq tekislanmagan edi. Qishda yopilardi. Hozir-chi? Xohlagan mashinangizda yo'lga chiqing, bir soatda yetib borasiz.

Yana bir gap. Chiylal yaxnasini doimiy sotish uchun sharoit yaratib beriladigan bo'ldi. Haftada bir marta bo'ladigan bozorga chiqariladigan yaxna endi har kuni sotiladi. Buning uchun alohida markaz tashkil etilib, zamonaviy xizmatlar yo'lga qo'yiladi. Bu gastronomik turizm rivoji, hudud aholisi uchun daromad degani.

Endi muddaoga o'taylik. Biz turizm deganda, faqat chetdan mehmonlar kelishini, bu iqtisodiyotga katta foyda ekanini haqida gapiramyiz. Bu fikrlar to'g'ri. Ammo uning yana

bir juda muhim jihati bor. Bu ham bo'lsa, ichki sayyohlik. Yurt bo'ylab tomoshaga chiqqan odam dam oladi. Ayniqsa, oilasi bilan sayohat qilsa, ko'tarinki kayfiyat sabab o'zaro ahillik yanada mustahkamlanadi. Odamda ishchanlik kuchayadi. Oilalardagi mana shunday kichik o'zgarishlar jamlanib, butun mamlakatda o'z natijasini ko'rsatadi. Demoqchimanki, rivojlanish, o'sish hech qachon yakka holda sodir bo'lmaydi.

O'zingiz aytig, shu paytgacha Chiylal yaxnasi odamlarning doimiy daromad manbaiga aylanishi haqida o'ylab ko'rganmidik?! Ko'ryapsizmi, oddiy, ammo juda samarali loyiha. Ha, viloyatimizda ishga solinmagan imkoniyatlar juda ko'p. Ko'kdaladagi yig'ilishda Qashqadaryo ishga solinmagan kamida 15 milliard dollarlik salohiyatga ega ekani ta'kidlandi. Masalan, yaylov va o'rmon yerlarini oling. Ulardan samarali foydalanish fursati yetdi. Endi bo'sh turgan 1,3 million gektar yaylov va o'rmon yeri ishga solinadi. Investitsiya jalb qilinib, loyihalar moliyalashtiriladi. Shuning hisobiga ikki yilda viloyatdagi kamida 200 ming gektar yer lazerli tekislanib, suv tejoyvchi texnologiyalar joriy etiladi. Yoki yana bir yangi loyiha — kartoshkachilik. Buning uchun 10 foizdan 12 oyga imtiyozli kredit ajratiladigan bo'lyapti. Tag'in bu tarmoqqa texnikalar importi boj undirishdan ozod etiladi. Yuqori navli urug' xarid qilishda qo'shilgan qiymat solig'ining 50 foizi qaytarib beriladi. Bunday imtiyozlar, albatta, tizimni o'zgartirish, yangi bosqichga olib chiqishga sabab bo'ladi.

Bir necha yildan buyon Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutida ilmiy maslahatchiman. Hozir italiyalik qishloq xo'jaligi ilmiy xodimlari bilan hamkorlikda qattiq bug'doy navini yaratish borasida ishlayapmiz. Bu ham sohada katta yangilik bo'ladi. Suvsizlikka chidamli mazkur navning yaratilishi iqlim o'zgarishiga moslashish va mintaqada barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar ifodasidir. Davlatimiz rahbari tashrif davomida mazkur institut ilmiy ishlari rivojiga uchun 3 million dollar ajratishni belgilagan soha yanada taraqqiy etishiga xizmat qiladi.

Viloyatda chorvachilikni kompleks rivojlantirish dasturi ishga tushadigan bo'ldi. Buning uchun Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan kam foizli kreditlar ajratiladi. Shu orqali vohada ishlayotgan chorvadorlar to'liq quvvatga chiqadi. Agar yeri va fermasi bor bo'lsa, imtiyozli mablag' beriladi.

Tahillarga ko'ra, joriy yilning o'tgan olti oyida viloyatning meva-sabzavot eksporti ikki karra oshib, 62 million dollarga yetgan. Ayniqsa, Ko'kdalaning ertapishar tarvuzi bu borada yetakchi. Endi pomidor yetishtirish bo'yicha ham ishlar bajariladi. Shu maqsadda 13 ta tumandagi 6000 gektar yerda pomidor yetishtirish reja qilindi.

Joriy yilda Kitob tumani, Qarshi va Shahrisabz shahri ishsizlik va kambag'allikdan xoli hududga aylantiriladi. Shuningdek, yil oxiriga qadar 470 ming kishini band qilish, 150 ming fuqaroni kambag'allikdan chiqarish rejasi qilingan. Albatta, buning uchun aniq loyihalar ishlab chiqilgan.

Endi gapni qisqacha qilib, muddaoga o'tsam. Viloyatimiz keyingi yillarda butunlay o'zgardi. Aholini rozi qilish uchun yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Odamlar qachon rozi bo'ladi? Birinchidan, o'zgarishlarni bugun his etsa. Ikkinchidan, o'sha yangilanishlar ularning iqtisodiy holatini yuqori ko'rsatkichga olib chiqsa. Ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida muammo bo'lmasa. Yangi O'zbekiston misolida aytsek, bugun xalqimiz yuqorida sanalgan jihatlarning barchasini o'z hayotida ko'rib, his etib turibdi.

Chiylalning yaxnasini ham, Ko'kdalaning tarvuzi ham, Mirakidagi dam olish joylari-yu Shahrisabzdagi davolash maskanlari ham, barcha-barchasi bugun oddiy odamlar hayotida real o'zgarishlarga sabab bo'lyapti. Shu bois, xalqimiz yaratuvcchanlik kayfiyatida, bugunidan rozi bo'lib, ertangi kuniga komil ishonch bilan yashayapti.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Akbar RAHMONOV suhbatlashdi.

"OQSAROIY"DA ORZUMGA ERISHDIM

Jasur SHOYQULOVI,
"Oqsaroy" klinikasi bosh shifokori

Bolalikdan qaysi kasbni tanlashni maqsad qilmaylik, birinchi o'rinda hunarimiz, ilm-tafakkurimiz bilan o'limiz, yaqinlarimizga foydamiz tegishini, mahalla ahliga xizmat qilishni istardik. Men ham shifokor bo'lib, yurtdoshlarim dardiga darmon bo'lishni niyat qilardim. Shu maqsadda yaxshi o'qidim, ayniqsa, kimyo, biologiya fanlarini puxta o'rgandim. Ulg'aygan sari xolis niyatim qat'iy maqsadga aylanib bordi va tibbiyot yo'nalishida oliy ma'lumot olib, shifokor bo'ldim. Poytaxtdagi yirik, zamonaviy asbob-uskunalariga ega shifoxonalarning birida ishlashni yuragimga tugib qo'ygandim.

Tibbiyot sohasiga qaratilayotgan e'tibor natijasida bugun nafaqat poytaxt yoki viloyat markazlari, balki tuman darajasida ham barcha shifokorlar istagan qulay sharoitlarga ega tibbiyot muassasalari barpo etilib, yurtdoshlarimizga sog'lig'ini tiklash yo'lida sifati xizmat qilyapti.

Hozir shunday manzillardan biri — Shahrisabz tumanidagi "Oqsaroy" klinikasida bosh shifokor bo'lib ishlayapman. Xorijdan kelgan malakali hamkasblar, dunyoning eng oldi zamonaviy tibbiyot jihozlari bilan ta'minlangan klinikamizda ishlashdan xursandman, shunday

joyda ishlayotganimdan, vohadoshlarimga oz bo'lsa-da foydam tegayotgani, ularning salomatligini asrashda hissam borligini o'ylab, g'ayratimga g'ayrat, shijoatimga shijoat qo'shilyapti.

"Oqsaroy" klinikasida 4 ta jarrohlik va 6 ta reanimatsiya xonasi, 100 dan ortiq shifo o'rmi mavjud. Bir vaqtning o'zida 4 ta va kuniga 25 tagacha yuqori texnologiyali kardiolarholik amaliyotini o'tkazish imkoniyati yaratilgan. Maqtanishga yo'ymang, Qashqadaryoda, bo'lib hamki Shahrisabz tumanida bugun mana shunday imkoniyatlarga ega zamonaviy klinika borligi




tahsinga sazovor. Negaki, mamlakatimizda kechayotgan tarixiy yangilanish jarayonlari, islohotlar samaradorligining yorqin misoli sifatida klinikamiz, yuqorida aytib o'tganimek, bir kunda 25 tagacha yuqori texnologiyali kardiolarholik amaliyotini o'tkazish imkoniga ega. Vaholanki, Shahrisabzda shunday klinika bo'lishi mumkinligi o'n yil oldin ertakdek bir gap edi.

Bu yerda gap faqat klinikamiz imkoniyatlarida emas, balki uni ro'yobga chiqarish uchun zarur sharoitlar yaratilganida ham. Xususan, operatsiya xonalaridagi jihozlar

xalqaro standartlarga javob beradigan eng so'nggi rusumdagi modellarni hisoblanadi. Masalan, zamonaviy exokardiografiya uskunasi sun'iy intellekt yordamida ishlaydi. Bunday tibbiy anjom faqatgina mana shu shifoxonada bor.

Zamonaviy qurilmalar bemorlarga yuqori



aniqlikda tashxis qo'yishimizga asos bo'ladi. Albatta, bularning barchasi tibbiyot sohasidagi orga qaytmas islohotlar, ijtimoiy davlat tamoyili asosidagi yangilanish va tashabbuslar samarasi. Biz, yoshlar ham yaratib berilgan imkoniyatlardan ruhlanib, yurtdoshlarimizga siqdildidan xizmat qilishga intilyapmiz.

Klinikamizda xastaligiga tashxis qo'ydirish va davolanish maqsadida kelayotgan bemorlarimiz dardiga shifo topgach, mutaxassislar va davlatimiz nomiga uzundan uzoq do qilyapti. Yoshi ulug' yurtdoshlarimiz ilgari oddiy tashxis qo'ydirish uchun viloyat markazi yoki poytaxtga

borishga majbur bo'lgani, agar operatsiya zarur bo'lganda hatto xorijga chiqishga to'g'ri kelganini aytib, "Mana, qilsa bo'larkan-ku", deb yaratilgan imkoniyatlarni tilidan bol tomib maqtayapti. Ularning quvonchini ko'rib, biz ikki karra mamnun bo'lamiz.

Shifoxonamizga Rossiya, Turkiya va Kuveytdan malakali shifokorlar ishga jalb etilgani nafaqat bemorlar uchun foydali, balki tajriba almashish, malaka oshirish imkoni sifatida biz — yosh kadrlar uchun ham manfaatli bo'lmoqda. Bu yerda yuqori malakali mutaxassislar tomonidan stendlash, aorta koronar shuntlash, tug'ma nuqsonlarni bartaraf etish, endoprotezlash kabi murakkab tibbiy amaliyotlar bajarilmoqda.

O'qish davrida Yevropaning rivojlangan mamlakatlariga borganimda mana shunday zamonaviy klinikalarni ko'rib, havas qilgan edim. Bugun poytaxtda emas, Shahrisabz tumanining o'zida shunday tibbiyot maskanida faoliyat yuritayotganimdan bag'oyat xursandman. Bu jihat, bir tomondan, jamoadoshlarimga kuch bersa, boshqa tomondan, zimnamizga katta mas'uliyat yuklaydi.

Prezidentimiz o'tgan hafta viloyatimizga tashrif davomida klinikamizga kelib, bu yerdagi shart-sharoit va imkoniyatlarni ko'zdan kechirdi. Biz bilan dildan suhbat qurib, boshqa tumanlarda ham mana shunday tibbiyot muassasalarini tashkil qilish bo'yicha mutasaddilarga topshiriq berdi. Tibbiyot sohasi vakili hamda shu el farzandi sifatida bu meni yanada quvontirdi. Davlatimiz rahbari bilan bo'lgan samimiy muloqotdan soha taraqqiyoti, yurtdoshlarimiz salomatligini himoya qilish yo'lida yanada fidoyilik bilan ishlashga ruhlandim.



YANGI O'ZBEKISTONNING IQTISODIY-IJTIMOY SALOHİYATI

YOXUD 2025–YILDAGI O'ZGARISHLAR KO'LAMIGA NIGOH

Taraqqiyot odimlari



Erkin GADOYEV,
Senatning Budget va iqtisodiy
masalalar qo'mitasi raisi

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari “Islohotlar yo'lidagi eng katta to'siq va g'ov bu — korrupsiyadir. Buni dunyo tajribasi ham to'liq tasdiqlaydi. Korrupsiya oqibatida jahon iqtisodiyoti yiliga 3 trillion dollar zarar ko'rayotgani bu global xavf ekanidan dalolat”, dedi.

Shu nuqtayi nazardan, keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha aniq tizim yaratilgani, alohida qonunlar qabul qililib, parlament palatalarida mas'ul qo'mitalar, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va alohida agentlik tashkil qiltingani muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Natijada mamlakatimizning ochiqlik bo'yicha xalqaro reytinglardagi o'rni 138 pog'ona yaxshilandi, Markaziy Osiyoda birinchi, dunyoda 30-o'ringa ko'tarildi.

Korrupsiyani qisqartirishda raqamlashtirish va inson omilini kamaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Bu yo'nalishda muhim qarorlar qabul qilindi. Jumladan, yerni hokim qarori bilan ajratishdan to'liq voz kechilib, auktsion tizimiga o'tilgani natijasida bu tizim xalqchil bo'ldi. Shuningdek, “Shaffof qurilish” dasturi joriy etilganidan keyin eng korrupsiyalashgan sohalardan biri bo'lgan qurilish sohasida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilmog'da.

Qurilish sohasi raqamlashgani hisobiga o'tgan 4-yilda Budgetning 3,6 trillion so'm mablag'i tejaldi. Davlat xaridlari bo'yicha qonun qabul qilindi, tanlov va tender raqamlashib, sog'lom raqobat mavjudga kelgani uchun o'tgan yili 14 trillion so'm iqtisod qilindi.

Ilgari investitsiya dasturiga kiritilgan obyektlarni quradigan pudratchilar mintagaga ham yetmasdi. O'tgan yili 13,5 mingta obyekt qurilishida 4000 dan ziyod pudratchi ishtirok etdi.

“Xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida aholi va tadbirkorlarga xizmat ko'rsatish yo'liga o'q'yilishi natijasida 120 turdagi hujjatni talab qilish, 160 dan ortiq litsenziya va ruxsatnoma bekor qilindi. Natijada 200 mingga yaqin yangi tadbirkor bozorga kirib keldi. Chet el ishtirokidagi korxonalar qariyb 5 barobar

oshib, 23 mingga yaqinlashdi. Elektron davlat xizmatlari soni 15 karra ortib, 721 taga yetdi. Ulardan foydalanuvchilar esa 11 milliondan oshdi.

Yig'ilishda davlatimiz rahbari manfaatlar to'qnashuvi, qimmat narxda tovar sotib olish yoki xizmat ko'rsatish, asosan, davlat xaridlarida kuzatilayotganini ham ko'rsatib o'tdi. Shuningdek, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Hisob palatasiga parlamentning Budgetga mas'ul qo'mitalari bilan birga to'g'ridan to'g'ri xaridlarni 2 karra qisqartirish topshirildi. Yil yakunigacha sun'iy intellekt yordamida davlat xaridlarida qonunga zid holatlarni aniqlash va oldini olish bo'yicha elektron tizimni ishga tushirish vazifasi qo'yildi.

Budgetdan tashqari mablag'lar hisobiga olinayotgan tovarlarni ham tartibga solish vaqt kelgani ta'kidlandi. Budget va Budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan asosiy vositalarni xarid qilish bo'yicha talablar kuchaytirilishi belgilandi.

Umuman, yig'ilishda jamiyatimizda korrupsiyaga murosasiz muhit shakllantirish, korrupsiyaning oqibatlari bilan emas, ularni keltirib chiqaruvchi sabablar bilan shug'ullanish orqali ushbu illatning barvaqt oldini olish bo'yicha belgilangan vazifalar islohotlar samaradorligini keskin oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatidir.

Ikkinchi yo'nalish — xizmatlar sohasi va mahalliy sanoatni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini ochish orqali kambag'allikni qisqartirish.

Xizmatlar sohasida erishilgan natijalar va sohada hal etilishi lozim bo'lgan muammolar Prezidentimiz raisligida 2025-yil 7-fevral kuni bo'lib o'tgan videosektor yig'ilishida batafsil tahlil qilindi.

Sohani rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturlar ijrosi natijasida xizmatlar qiymati 2018-yildagi 19 milliard dollardan 2024-yilda 65 milliard dollarga oshib, o'sish sur'ati 3,5 barobarni tashkil qildi. Shuningdek, IT, moliyaviy xizmatlar, turizm, aviatsiya, ta'lim va tibbiyotdagi yuqori darajadagi o'sish natijasida qo'shimcha 1,5 million kishi servisdagi doimiy daromadga ega bo'ldi. Shu bilan birga, so'nggi yetti yilda daromad va to'lov qobiliyati 2 karra o'sib, alohida yangicha xizmat turlariga talab ortmog'da.

Mamlakatimizdagi qulay investitsiya muhiti, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun taqdim etilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar 2025-yil uchun belgilangan xizmatlar hajmini 15 foiz oshirib, 82 milliard dollarga, eksportni esa 8,5 milliard dollarga olib chiqish, sohada 2,5 million fuqaroni daromad manbaiga ega qilish borasidagi ko'rsatkichlarni ortig'i bilan bajarish imkoniyatini ko'rsatmog'da.

Ushbu sohani yanada rivojlantirish maqsadida Prezidentimizning 2025-yil 27-fevraldagi “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorida asosiy maqsad va yo'nalishlar belgilandi. Jumladan, 2025-yilda



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

xizmatlar hajmini 15 foiz oshirish, xizmatlar sohasida 3 million kishini daromadli mehnat bilan ta'minlash va 52,2 mingta xizmat ko'rsatish obyektni tashkil etish asosiy maqsadli ko'rsatkichlar sifatida qayd etildi.

Unga erishishni ta'minlash maqsadida ayrim imtiyozlar ham belgilandi. Jumladan, chakana savdo va umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish) xizmatlari, avtotransportda yo'lovchi va yuk tashish, transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, kompyuter xizmatlari, maishiy texnikani ta'mirlash, agrar va veterinariya xizmatlari hamda ko'ngilochar maskanlarda xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun 1 foizli ijtimoiy soliq stavkasining amal qilish muddati 2028-yil 1-yanvargacha uzaytirildi.

Hududlarda 2025-yilda 72 ta sohilbo'yi dam olish maskani, 62 ta zamonaviy qiyofadagi istirohat bog'i, 154 ta tunu kun faoliyat yuritadigan turizm va gastronomik yo'nalishga ixtisoslashgan savdo va ko'ngilochar ko'cha hamda 364 ta yo'lbog'i va boshqa servis obyektni tashkil etish kabi 652 ta drayver loyihami infratuzilma bilan ta'minlashga davlat Budgetidan 1 trillion so'm yo'naltiriladi. Shu orqali “Inson qadri uchun” tamoyili asosida aholining dam olishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi hamda xizmat ko'rsatishning yangi turlari tashkil etiladi, sifati yanada yaxshilanadi.

Uchinchi yo'nalish — global iqtisodiy tebranishlarning milliy iqtisodiyotimiz barqarorligiga salbiy ta'sirining oldini olish.

Dunyoda yuz berayotgan iqtisodiy tebranishlarning soha va tarmoqlarga ta'sirini kamaytirish chora-tadbirlari bo'yicha 2025-yil 18-aprel kuni bo'lib o'tgan videosektor yig'ilishida Prezidentimiz bu muammolarga alohida to'xtalib, ularning yechimi bo'yicha batafsil ko'rsatmalar bergandi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz eksporti 2,2 barobar oshdi. Tashqi savdo aylanmasi yalpi

ichki mahsulotga nisbatan 57 foizga yetdi. Albatta, bu raqamlar islohotlar samaradorligi bilan bir qatorda milliy iqtisodiyotimiz tashqi bozorlarga qanchalik bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Bunday sharoitda faqat o'z kuchimiz va ichki imkoniyatlarimizga tayanib, dadil qadam tashlash kerakligi ta'kidlandi. Har bir vazirlik, tarmoq va hudud rahbari aniq reja tuzib, ishlab chiqarish, eksport bilan shaxsan shug'ullanishi shartligi ko'rsatib o'tildi.

Ayniqsa, standart va sertifikatsiya tizimidagi ortiqcha talab va muammolar tadbirkorlik rivoji va eksport salohiyatini oshirishda ayrim masalalarni keltirib chiqarmog'da. Yurtimizdagi 25 mingdan ortiq standart, 41 ta texnik reglament xalqaro bozor talablariga mos kelmaydi. Bu eskirgan talab va byurokratiya tadbirkorlarning “qo'lini bog'layapti”, korrupsiyani keltirib chiqaryapti. Ustma-ust sertifikatlash amaliyoti haligacha

davom etayotgani sababli odamlar sarson bo'layotgani qayd etildi.

Bu boradagi muammo yechimini hal qilish hamda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida shu yil 18-aprelda Prezidentimizning “Ishlab chiqarish, eksport va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, savdo va sanoat siyosati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni qabul qilindi.

Hujjatda texnik jihatdan tartibga solish, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, karantin idoralarining mahsulotga xulosa berish vakolati aniq belgilab qo'yildi. Takrorlanuvchi va ustma-ust tartiblar bosqichma-bosqich bekor qilinishi belgilandi. Shuningdek, sertifikat olish majburiy bo'lgan tovarlar ro'yxati qisqartirilib, mahsulot muvofiqligini deklaratsiyalash amaliyoti joriy qilindi.

Asbob-uskuna, xomashyo, maxsus texnika, transport importida yurtimizda tan olinadigan



YURTDAN MEHR, YERDAN DARMON-U DAROMAD OLAYOTGANLAR

Bandlik

Rasuljon Tohirov Farg'onaning Qo'shtepa tumanidan. Uni Garmdon mahallasidagilar yaxshi tanidi. Rasuljon akaning uch o'g'il bor, barchasini uyli-joyli qildi. Lekin ularning muqim ish joyi, doimiy daromadi yo'q edi. Shu bois, kunlar iliy boshlashi bilan o'g'illari ishlash uchun birin-ketin xorijga ketardi. Farzandlarini uzoqqa yuborish, kelinlarining qosh-qovog'iga qarash ota uchun qiyin. Ammo boriga ko'nikib yashashga majbur.

Bu yilgi ko'klam Rasuljon akaning oilasi uchun xayrli ishlar bilan boshlandi. Mahalladagi yoshlar yetakchisining tavsiyasi bilan oiladagi uch o'g'il va kelinlar ishsiz yoshlar qatoriga kiritildi. Ularga shu asosda bir gektarga yaqin yer ijara sifatida ajratib berildi. Ota boshchiligidagi butun oila birlashib, dalada astoydil mehnat qiladi.

— Erta bahorda boshlagan harakatimiz bugun mevasini berdi, — deydi oila kenjasi Hojiakbar. — Aprelning boshida 14 ming tup tarvuz ko'chati ekdik. Allaqachon ilk hosilni olib, bozorga chiqardik. Mavsumda 50 tonnadan ortiq tarvuz olishni mo'ljal qilganmiz. Bu o'rta hisobda 100 million so'm daromad degani. Ish boshlashdan oldin tengdoshlarim chet elga borishga undagan edi, ko'nmadim. Adashmagan ekanman. Uch



Shezod QORABOYEV olgan suratlar.

oylik mehnat va harakatdan keyin daromad ola boshladik. Kuzda tarvuz o'miga takroriy ekin ekamiz. Yer atrofidagi bo'sh maydonda o'rtdak, tovuq boqishni ko'zlab turibmiz. Bizga berilgan yer Marg'ilon — Yozyovon katta avtomobil yo'liga yaqin. Bu qo'shimcha xizmat ko'rsatish faoliyatini yo'liga qo'yishga imkon degani. Natijada yangi ish o'rnlari ham ochamiz. Qolaversa, mahsulotlarimizni dala boshida sotamiz.



Ha, yer bilan tillashayotgan dehqonlar hosil cho'g'idan mamnun. Yer olgan yoshlarning aksariyati kam ta'minlangan, ishsiz, ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlaridir. Shu bois,

ekin maydonlari haydalib, ekin ekishga tayyor holda topshirilgan. Ularga urug' va ko'chatlarni yetkazib berishdan tortib, mahsulotni sotib olishgacha bo'lgan jarayonda ko'maklashadigan eksportyorlar birlashtirilgan.

— Bu yil 25 yoshga kirdim. Besh yildirki, o'zga yurtlarda ishlab yurgandim, — deydi Saminjon Siddiqov peshona terini artib. — O'n sotixga uzum ekdim. Nasib etsa, kelasi yildan hosilni sota boshlaymiz. Xomaki hisobga ko'ra, har sotixdan 600-700 kilo sara uzum olishni reja qilganman. Hozir ko'chatlar oralg'i'da poliz ekini ekib, hosil ola boshladik. Albatta, bitta hosil bilan cheklanib qolmaymiz. Ekinlar o'miga to'qsonbosti usulida boshqa sabzavot ekinlari yetishtirib daromad olamiz. Endi uydan olisga ketmay, oila tebratayotganim, yaqinlarga ko'mak berayotganimdan xursandman.

— Aslida, qishloqda ishsiz odamning o'zi yo'q, faqat dangasalar bo'lishi mumkin, — deydi “Garmdon” mahalla fuqarolar yig'inidagi yoshlar yetakchisi Qosimjon Yoqubov. — Mahallamizda o'tkazilgan xatlovda ishsiz 33 yosh borligi ayon bo'ldi. Ularga turli yo'nalishda imtiyozli kredit ajratildi. Xohlovchilarga yer

berildi. Hududimizda asosiy drayver — qishloq xo'jaligi. Hamma dehqonchilik bilan ekan: kimdir bog' barpo etgan, yana kimdir tarvuz-qovun, sabzi, makkajo'xori ekib, daromad ola boshlagan.

Qo'shtepa tumanida bu borada e'tirofqa loyiq ishlar qilayotgan yoshlar ko'p. Bu tajribani ommalashtirish, tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga har jihatdan e'tibor berilyapti.

— Tumanimizdagi 51 ta mahallada o'tkazilgan xatlov natijasida yer olish istagidagi yoshlar ro'yxatini tuzdik. Ular orasida “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan, kam ta'minlangan hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar, qolaversa, chet eldan qaytgan, huquq-tartibot va mudofaa organlariga birlashtirilgan yigit-qizlar ham bor. Xullas, 1359 ishsiz yosh ro'yxati shakllandi, — deydi tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Akmaljon Yusupov. — Yoshlarning har biri bilan yakkama-yakka suhbatlashdik. Dehqonchilik qilish istagini bildirganlarga tuman bo'yicha 358 gektar yer ajratildi. Ular hozir “Bir kontur — bir

xorijiy sifat va nazorat tizimlari mezonini ishlab chiqilishi hamda ularning importida milliy sertifikat olish talab qilinmasligi ham belgilandi.

Yig'ilishda ayni yo'nalishda barcha tartibni o'z ichiga oladigan “Bozor nazorati to'g'risida”gi qonunni qabul qilish zarurati qayd etildi. Albatta, ushbu qonunning qabul qilinishi mahalliy ishlab chiqaruvchilarga o'z tovarlari bilan tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatini yanada kengaytiradi, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

To'runchi yo'nalish — ipoteka dasturi ijrosida “Inson qadri uchun” tamoyili. Bugun aholini uy-joy bilan ta'minlash davlatimizning alohida e'tiborida. Bu borada qator dasturlar qabul qilindi, ipoteka bozorini yanada rivojlantirish va aholining kam ta'minlangan qismini uy-joy bilan ta'minlash borasida tegishli farmon va qarorlar qabul qilindi.

2025-yil 23-yanvar kuni bo'lib o'tgan videosektor yig'ilishida Prezidentimiz bu sohada erishilgan ijobiy natijalar bilan birga kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarga to'xtaldi.

Mamlakatimizda 2024-yilda 100 mingdan ziyod xonadonga ega 2044 ta ko'p qavatli uy barpo etildi. Bu jon boshiga uy-joy hajmi 2020-yildagi 16 kvadrat metrdan 2024-yilda 19 kvadrat metrga oshdi, degani. O'tgan yilda 21,4 million kvadrat metr turar joy va 19,1 million kvadrat metr noturar obyektlar qurilib, mebel, elektrotexnika, to'qimachilik, qurilish materiallari sohasida qo'shimcha 11 trillion so'mlik bozor yaratildi va bu sohalarda 350 ming odam ishl bo'ldi.

Yig'ilishda so'nggi yillarda aholi soni yiliga qariyb 800 mingga, yangi oilalar esa 300 mingga atayotgani uy-joyga talabni qondirish bo'yicha ishlarni jadallashtirishni taqozo etayotgani ta'kidlandi.

Prezidentimizning 2025-yil 21-fevraldagi “Uy-joy va ipoteka bozorini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni uy-joy qurilishi hajmini kengaytirish va ipoteka bozorini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Zero, hujjat bilan 2025-yilda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturining asosiy yo'nalishlari belgilab berildi.

Belgilangan ko'rsatkichlarga erishish uchun hududlarda 8,1 million kvadrat metrdan iborat 135 ming kvartirali uy-joylar qurish, ipoteka krediti bo'yicha dastlabki badal va foiz to'lovining bir qismini qoplash uchun subsidiyalari sonini 1,5 barobar oshirish, bunga davlat Budgetidan 2,5 trillion so'm yo'naltirish, uy-joy va ipoteka bozorini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash uchun esa 20,9 trillion so'm ipoteka krediti ajratish maqsad qilingan.

Shuningdek, “Yangi O'zbekiston” va boshqa massivlarda ko'p kvartirali uy-joylar barpo qilishda ishtirok etadigan qurilish tashkilotlarini aylanma mablag' bilan ta'minlash uchun davlat Budgetidan 700 milliard so'm hamda tijorat banklari mablag'i hisobidan 3 trillion so'm yo'naltirish belgilangan.

2030-yilgacha kamida 100 ta “Yangi O'zbekiston” massivini qurish reja qilinganidan kelib chiqib, yangi massivlar uchun yer kamida 70 ming odam yashaydigan tuman markazi yoki shahar hududiga 1-2 kilometr masofadagi joydan ajratiladi. Bu massivlarning har birida 100 ming kvadrat metr xonadon quriladi. Buning uchun 2025-yilda “Yangi O'zbekiston” massivlari infratuzilmasiga 1,2 trillion so'm ajratilgan.

Umuman olganda, mamlakatimizdagi yangilanish jarayoni kun sayin jadallashtirmog'da. Ayniqsa, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'lidagi islohotlar muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda iyun oyi ham iqtisodiy tadbirlarga boy bo'layotganini ta'kidlash joiz. Ayniqsa, IV Toshkent xalqaro investitsiya forumida Prezidentimiz bildirgan fikrlar va ilgari surilgan takliflar, Xorijiy investorlar kengashidagi nutqida ko'tarilgan masalalar, forum yakunlari bo'yicha erishilgan kelishuvlar O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini yanada oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlari barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

mahsulot” tamoyili asosida ekin ekkan. Bu yigit-qizlarga imkon qadar ko'maklashaymiz. Urug'lik, texnika, mineral o'g'it bilan ta'minlash, yetilgan hosilni sotishga yordam beryapmiz.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 5-apreldagi “Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga binoan Farg'ona viloyatida yer olish istagini bildirgan 21 mingdan ziyod talabgor ro'yxati shakllantirildi. Shu asosda viloyat bo'yicha 5000 gektarga yaqin yer ishsiz yoshlar uchun ajratildi. Shuningdek, ijara asosida yer olgan 18 ming ishsiz yoshning 6770 nafari o'zini o'zi band qilish orqali va 11 ming 230 nafari yuridik shaxs tashkil etmagan holda dehqon xo'jaligi sifatida ro'yxatdan o'tkazildi.

“Xalqimiz “Yer — xazina, tomorqa — bebaho boylik” degan naqlni bejiz aytmagan. Saxovatli zamanga mehr berib, urug' qadagan, o'z vaqtida begona o'tlardan tozalab, o'g'it solib, suv bergan kishi hamisha mo'l hosil oladi. Daromad ham shunga yarasha bo'ladi.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



YANGI O‘ZBEKISTON

Yuksalish pallasi

IQTIDORLI YOSHLAR UCHUN IMKONIYATLAR DAVRI BOSHLANDI

UCHTA YO‘NALISHDA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR HAQIDA

Ayni kunlarda mamlakatimiz bo‘ylab yana bir xayrli tashabbus — milliy kadrlarning yangi avlodini tayyorlash ishlari keng qanot yozmoqda. Davlatimiz rahbarining joriy yil 15-maydagi “Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga binoan, “Prezident iqtidorli farzandlari” loyihasi ishga tushirildi. Yosh avlodga kuchli ishonch va strategik qarashlarni ifodalovchi, intellektual, ijodiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish uchun maydon vazifasini o‘taydigan mazkur loyihadan nimalar kutilyapti? Bu savolga soha mutaxassislari va ekspertlardan javob oldik.



Javohir AXMEDOV,
“Prezident iqtidorli farzandlari”
tashabbusi loyihasi rahbari,
Al-Beruniy nomidagi
xalqaro maktab-internet ijrochi
direktori:

— Bu loyiha tufayli yoshlardagi intellektual va ijodiy imkoniyatni ro‘yobga chiqarish uchun maydon yaratildi. Uchta dolzarb yo‘nalishni qamrab olgan loyihada belgilangan vazifalar mamlakatimiz kelajagi uchun muhim o‘rin tutadi.

Birinchi yo‘nalish — “Prezident iqtidorli farzandlari” milliy dasturi. U mamlakat bo‘ylab saralab olingan eng qobiliyatli 1500 9-sinf bitiruvchisini jahondagi yetakchi universitetlarga tayyorlashga mo‘ljallangan. Milliy dastur ishtirokchilariga Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarning malakali maslahatchilari birlashtiriladi. Ular o‘quvchilarga oliy ta’limga kirish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish, portfolioni kuchaytirishda yaqindan yordam beradi.

Bugun Garvard, Yel va Kolumbiya singari

eng nufuzli OTMLar test natijalarini emas, aynan shaxsiy portfolioni e‘tiborga oladi. Yoshlarning loyihasi, yetakchiligi, jamiyatga qanday naf keltirgani kabi real holatlarni baholaydi.

Ishirokchilar uchun Renessans oromgohida maktab dasturidan tashqari tadqiqot metodologiyasi, ijtimoiy loyiha tayyorlash, jamoaviy ishlash, nutq madaniyati kabi chuqurlashtirilgan qo‘shimcha fanlarni o‘zlashtirish uchun intensiv treninglar tashkil qilinadi. Bularning bari yoshlarning shaxsiy portfoliosini boyitib, hujjat topshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Milliy dasturning eng muvaffaqiyatli 40 ishtirokchisi AQSHning nufuzli 8 ta universiteti uyushmasi “The Ivy League” (Pechak ligasi)ning yozgi maktablariga yuboriladi.

Dastur ishtirokchisi keyinchalik eng yaxshi universitetlar 100 taligiga (TOP-100) 50 foizlik grant asosida o‘qishga kirsa, kontrakt pulining qolgan qismi “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali to‘liq qoplab beriladi. Dasturga qabul jarayoni bir bosqichli bo‘lib, har bir hududda matematika va ingliz tilidan test o‘tkaziladi. Har bir fandan 40 tadan savol berilib, umumiy maksimal baho 80 balni tashkil qiladi. Shuningdek, olimpiadalarida sovrinli o‘rinlarni egallagan nomzodlarga 20 balgacha qo‘shimcha ball beriladi. Ijtimoiy himoya yagona reyestri va Kambag‘al oilalar reyestri a‘zolari farzandlariga 10 ballik imtiyoz mavjud. Natijada eng yuqori ball to‘plagan 1500 o‘quvchi saralab olinadi.

Ikkinchi yo‘nalish — O‘zbekistonda muqobili bo‘lmagan Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab-internetning tashkil etilishi.

Har yili 8-sinfning eng iqtidorli bitiruvchilari orasidan 60 nafarini maktabga qabul qilish ko‘zda tutilgan. Unda xalqaro standartlarga mos ta’lim beriladi, ilg‘or pedagogik tajribalardan foydalaniladi. Maktabda ilmiy tadqiqot va innovatsion loyihalar uchun barcha sharoit

yaratilgan. Shaxsiy portfoliosini shakllantirish uchun har bir o‘quvchiga ilmiy, ijtimoiy va innovatsion loyihalar bilan shug‘ullanish imkoniyati taqdim etiladi.

Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab-internet shunchaki o‘quv muassasasi emas, balki iqtidorli va istiqbolli, g‘ayratli, shijoatli o‘quvchilarni mamlakat bo‘ylab ochiq tanlov asosida saralab oladi. Bolalarga uch yil davomida xalqaro standartlar asosida ta’lim beriladi. Xorijdagi eng nufuzli universitetlarga kirish uchun imkoniyat yaratadi. Maktabning boshqa ta’lim muassasalaridan asosiy farqi shundaki, bitiruvchilarga shahodatnoma bilan bir qatorda yetakchi xorijiy oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirish imkoniyatini beruvchi xalqaro darajadagi diplom (International Baccalaureate) beriladi.

Qabul jarayoni ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda har bir hududda matematika va ingliz tili fanlaridan 40 tadan savol asosida 100 ballik tizimda saralash imtihoni bo‘lib o‘tadi. Eng yuqori ball to‘plagan 300 o‘quvchi Toshkent shahrida bo‘lib o‘tadigan 2-bosqich sinovlarida ishtirok etishi mumkin. Ikkinchi bosqichda ham matematika va ingliz tilidan yozma imtihon o‘tkazilib, yakuniy natijalarga ko‘ra, eng yuqori ball to‘plagan 60 o‘quvchi tanlab olinadi.

Maktabda har yili 60 nafardan — 3 yilda 180 o‘quvchi to‘liq grant asosida o‘qitiladi. Ular kelajakda xalqaro tan olingan eng yaxshi universitetlar 10 taligiga kiruvchi (TOP-10)

universitetlarga grant asosida qabul qilinib, zamonaviy bilim va professional tajriba egallaydi.

Uchinchi yo‘nalish — Prezident iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamjamiyati. Bu tuzilma mamlakatning eng iste’dodli yoshlarini — Prezident maktablari, Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab-internet, “Yangi O‘zbekiston” universiteti hamda “El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendiatlarini yagona platformada birlashtiradi.

Yoshlar davlat organlari va yirik kompaniyalar bilan bevosita muloqot qilish, mamlakat rivojiga doir muhim qarorlarda fikr bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Maxsus raqamli platforma orqali yoshlar o‘zaro tajriba almashadi, innovatsion g‘oyalarini muhokama qiladi. Bundan tashqari, hamjamiyat tomonidan yoshlar uchun xalqaro miqyosdagi forumlar, konferensiyalar va treninglarga qatnashish sharoiti yaratiladi. Ular yetakchi ish beruvchilar bilan bevosita bog‘lanadi.

Shuningdek, mamlakat rivojiga sezilarli hissa qo‘shayotgan fidoyi mutaxassislarni o‘zaro tajriba almashadi, innovatsion g‘oyalarini muhokama qiladi. Bundan tashqari, hamjamiyat tomonidan yoshlar uchun xalqaro miqyosdagi forumlar, konferensiyalar va treninglarga qatnashish sharoiti yaratiladi. Ular yetakchi ish beruvchilar bilan bevosita bog‘lanadi.

“Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusi yosh avlodni global raqobatbardosh, intellektual jihatdan yuksak va ijodiy salohiyatga ega mutaxassislar sifatida shakllantirishga qaratilgan strategik loyihadir.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Shavkat AYUPOV,
Fanlar akademiyasi prezidenti,
O‘zbekiston Qahramoni:

— “Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusi bilan tanishar ekanman, 1997-yilda tashkil etilgan “Umid” jamg‘armasi yodimga tushdi. O‘sha davrda men O‘zbekiston Oliy Attestatsiya komissiyasi raisi, Jamg‘arma tomonidan o‘tkazilgan tanlovlarda hakam sifatida ishtirok etganman. Universitetlarda tahsil olayotgan iqtidorli talabalarni subhat asosida tanlaganmiz. Ular juda iqtidorli yigit-qizlar edi. Keyinchalik “Umid” jamg‘armasi orqali dunyoning eng nufuzli universitetlarida tahsil olishdi. Lekin o‘qishni tamomlab qaytib kelgach, ularning salohiyatidan unumli foydalanilmadi. Natijada yoshlar egallagan bilimi qaysidir faoliyatida kerak ekanini sezmadim. Ayrimlari sohani tashlab ketdi. Chet elga qaytib, faoliyatini o‘sha yerda davom ettirganlar ham bo‘ldi.

2018-yili Prezidentimiz tashabbusi bilan “El-yurt umidi” jamg‘armasi tashkil etildi. Uning oldiga yurtimizdagi iqtidorli yoshlar va davlat xizmatlilarining xorijdagi nufuzli o‘quv, ilmiy va boshqa muassasalarda ta’lim olishini tashkil etish hamda zamonaviy bilimga ega, kreativ fikrlaydigan yangi avlod kadrlarini shakllantirish, davlat xizmatiga jalb etishga ko‘maklashish vazifasi qo‘yildi. Jamg‘arma ushbu vazifani baholi qudrat bajardi. Ammo bugun xalqimiz shiddatli o‘zgarishlar davrida yashamoqda. Ana shu jadal taraqqiyot jarayonida tashabbuskor, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, salohiyatli kadrlarga ehtiyoj ortishi tabii. Bu esa jamg‘arma faoliyatini yanada takomillashtirishni taqozo etdi.

Yaqinda “El-yurt umidi” jamg‘armasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Istiqbolli kadrlarni tayyorlash bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi etib qayta tashkil qilindi.

Davlatimiz rahbarining shu yil 15-maydagi “Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga binoan yana bir xayrli ish boshlandi.

Iqtidorli yoshlarni barvaqt aniqlash va har tomonlama qo‘llab-quvvatlashni ko‘zda tutuvchi ushbu me‘yoriy hujjat mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish, jahon mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, mamlakat taraqqiyoti uchun yangi innovatsion imkoniyatlar yaratish kabi ezuq maqsadlarga qaratilgan. O‘quvchi yoshlarning intilishiga qanot bo‘lib xizmat qiluvchi mazkur tashabbus yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash borasida davlatimiz yuritayotgan siyosatning mantiqiy davomidir.

Yana bir ahamiyatli jihati shuki, iqtidorli yoshlarni yagona platformaga birlashtirish orqali o‘zaro hamkorligi, tajriba almashuvi va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun samarali muhit yaratiladi.

Bir yilcha oldin Prezidentimiz raisligida muhandislik kadrlarini tayyorlash bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida men ham qatnashgandim. O‘shanda zamonaviy bilim va malakaga ega muhandis-texniklarga ehtiyoj yuqoriligi aytilidi. Chunki barcha soha rivojlanib, yangi majmualar ishga tushirilmoqda, texnologiyalar hayotimizga kirib kelyapti. Iqtidorli yoshlar orasida muhandislik-texnika yo‘nalishida kadrlarni yetishtirish zamon talabi.

Iqtidorlarni aniqlash maktabdan boshlanadi. Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida shunday bolalar tahsil olyapti. “Garvardchilar maktabi” sifatida e’tirof etilayotgan Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab-internetni tashkil etishdan maqsad sekin-asta iqtidorli bolalarni tanlash imkoniyatini kengaytirish. Maktabga yurtimiz bo‘ylab eng iqtidorli o‘quvchilar saralab olinadi.

Shu o‘rinda bir jihatga e’tibor qaratishni istardim. Ayrim bolalarning iqtidori darrov sezilmaydi. Ularni tanlayotganda juda ehtiyoj bo‘lish kerak. Masalan, bolalar bor — tez ilib oladi. Ayrimlari uchun vaqt kerak. Chunki ular chuqur fikrlaydi. Qobiliyatini ko‘rsatishi uchun yoshlarga imkon berish kerak.

“Prezident iqtidorli farzandlari” milliy dasturi doirasida O‘zbekiston bo‘ylab salohiyati yuqori o‘quvchilar tanlab olinishi, oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni asosida tayyorlanishi navqiron avlod vakillarining ta’limi, kelajagiga qaratilgan e’tibordan dalolat.

Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamjamiyati orqali mamlakatdagi eng salohiyatli yoshlarning O‘zbekistondagi islohotlarda bevosita ishtirok etishi, g‘oya va tashabbuslarini ilgari surish imkoniyati yaratilmoqda. Hamjamiyat a‘zolari vazirlarlik, idoralar va yirik kompaniyalar bilan bevosita muloqotda bo‘ladi. Muhokama qanchalik ko‘p bo‘lsa, yaxshiroq tajribalar bilan tanishish imkoni shuncha kengayadi. Bu ham yoshlar o‘z salohiyatini namoyon etishi uchun tengsiz imkoniyat.

**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Risolat MADIYEVA yozib oldi.**

Pensiya desa, aksariyatning ko‘z oldiga bobo-momolar keladi. Ularning pensiya bilan bog‘liq mashaqqatiga ko‘pimiz sirtdan bo‘lsa-da, guvoh bo‘lganmiz. Har bir ish joyidan hujjat to‘plash bilan sarson yurgan kekxa avlod vakillarining idoralar eshigida navbat kutib, bir hujjat ortidan boshqasini izlab yurganini yaxshi eslaymiz. Ba’zida esa birgina hujjat yo‘qligi tufayli butun pensiya tayinlash jarayoni noma’lum muddatga to‘xtab qolardi.

Jarayon

AHOLI MANFAATLARI SARI OCHILGAN “RAQAMLI ESHIK”

Qishloqlarda esa pensiya olish masalasi pochta kelishiga bog‘liq edi. U o‘z hududidagi har bir xonadonga kirib chiqquncha yana bir necha kun kutilgan holatlar ham kuzatilardi. Pensiyani kutish hatto ayrimlar uchun “kun tartibi”ga aylanib ulgurandi.

Bugun esa hammasi boshqacha. Har bir sohada, xususan, ijtimoiy xizmatlar tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Raqamlashtirish jarayoni hayotimizning barcha jabhasiga kirib kelmoqda. Bu inson omili tufayli yuzaga keladigan nohaqliklar, byurokratik to‘siqlar hamda korrupsion holatlarni kamaytirishda muhim omilga aylanmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 31-oktabrdagi “Aholiga pensiya tayinlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, 2025-yil 1-martdan boshlab, O‘zbekistonda yoshga doir pensiyalarni tayinlash tartibi tubdan o‘zgardi.

Endi pensiya tayinlash uchun fuqarolarning alohida ariza topshirishiga zarurat qolmadi. Fuqarolar belgilangan yoshga yetganda pensiya



avtomatik, ya’ni proaktiv tarzda tayinlanadi. “Proaktiv” tizim deganda, pensiya olish huquqi bilan bog‘liq jarayonni avtomatlashtirish va takomillashtirishga qaratilgan mexanizm tushuniladi. Bu tizimning qulayligi shundaki,

pensiya huquqiga ega fuqarolarni oldindan aniqlash, tegishli ma’lumotlarni yig‘ish va pensiyani belgilash jarayoni ancha tezlashdi. Fuqarolar oson va tez pensiya olish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Tizim qanday ishlaydi?

Fuqaro belgilangan pensiya yoshiga yetganda Adliya vazirligi uning ID kartasiga oid ma’lumotlarni elektron tarzda Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasining “Pensiya” axborot tizimiga yuboradi. Keyin Ichki ishlar vazirligining “Manzil” axborot tizimi orqali fuqaroning yashash manzili aniqlanadi. Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi fuqaroning rasmiylashtirilgan mobil raqamiga pensiya tayinlash masalasi ko‘rib chiqilayotgani haqida SMS xabar yuboradi. Shundan so‘ng tuman (shahar) byudjetdan tashqari pensiya bo‘limi fuqaroning ish staji, ish haqi va tegishli ma’lumotlar asosida pensiya miqdorini hisoblab chiqadi hamda pensiya tayinlanish taqdirda ish staji, o‘rtacha ish haqi va pensiya miqdori haqidagi ma’lumotlar SMS orqali yuboriladi.

Agar fuqaroning mobil raqami bo‘lmasa, ma’lumot “O‘zbekiston pochta” orqali yetkaziladi. Biroq pensiya tayinlanmasa, SMS orqali rad etish sabablari, qo‘shimcha hujjatlar

talab etilishi va shikoyat berish tartibi yuboriladi.

Shuningdek, Prezidentimiz qaroriga asosan, korxona va tashkilotlarga o‘z xodimlarining mehnat daftarchasidagi ma’lumotlarni Yagona milliy mehnat tizimiga kiritish vazifasi yuklatilgan. Bu esa kelgusida pensiya tayinlash jarayonini yanada osonlashtiradi. Hozir mehnat faoliyati bilan mashg‘ul bo‘lmagan fuqarolar esa bandlikka ko‘maklashish markazlariga murojaat qilib, mehnat daftarchasidagi ma’lumotlarni raqamlashtirib olishi kerak.

Bugun bu kabi o‘zgarishlar nafaqat yoshi kattalar, balki imkoniyati cheklanganlar hayotida ham joriy etilmoqda.

Bu shunchaki shior emas

Inson qadri til, millat, jins, yosh yoki jismoniy imkoniyatlardan qat’i nazar, har bir insonning sha’ni va jamiyatda munosib o‘rin egallash huquqidir. Bu shunchaki shior emas, balki ijtimoiy taraqqiyot, axloqiy me’yorlar va davlat siyosatiga asos bo‘ladigan o‘zak tamoyildir.

Ayniqsa, imkoniyati cheklanganlar hayotida bu tushunchaning haqiqiy mazmuni yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki insoniyat taraqqiyotining bosh mezonini aynan eng zaif va himoyaga muhtoj qatlama munosabat bilan o‘lchanadi. Jamiyatdagi insonparvarlik tamoyillari kuchlilarni emas, zaiflarni himoya qilish bilan belgilanadi.

Mana shunday yuksak qadriyatlardan biri davlatimiz rahbarining “Nogironlik pensiyalari va kompensatsiyalarni tayinlashda qaroqir xizmatlarni joriy etish to‘g‘risida”gi qarorida o‘z ifodasini topdi. Unga ko‘ra, 2025-yil 1-iyuldan I va II guruh nogironligi bo‘lgan fuqarolarga davlat pensiyalari va kompensatsiyalar avtomatik tarzda tayinlanadi. Bu byurokratik to‘siqlar ortida qadrsizlikka aylangan tartiblarni

yangilash, insonni tizim uchun emas, balki tizimni inson uchun xizmat qiluvchi mexanizmga aylantirish demakdir.

Qarorda belgilangan yana bir muhim jihat shundaki, ko‘rish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan I guruh nogironlari, shuningdek, radiatsiya xavfi ostida xizmat qilgan shaxslar uchun ham kompensatsiyalar elektron axborot tizimi orqali avtomatik tarzda belgilanadi. Bu nafaqat ijtimoiy kafolat, balki insonparvarlikning amaliy ifodasidir.

Shu bilan birga, nogironlik pensiyasi tayinlangandan so‘ng kamida bir yillik ish stajiga ega fuqarolarning pensiyasi har ikki yilda avtomatik qayta hisoblanadi. Bu nogironlarning mehnat qilayotgan qismini rag‘batlantiruvchi muhim omil.

**2025-yil 1-oktabrdan boshlab
esa pensiya va boshqa ijtimoiy
to‘lovlar Face ID hamda
elektron raqamli imzo orqali
amalga oshiriladi.**

Bugungi islohotlar O‘zbekistonda nogironlik jamiyatdan chetda qolish emas, balki yangi imkoniyatlar eshigini ochuvchi ijtimoiy bosqich bo‘lishi mumkinligidan dalolat beriyapti. Nogironlar endi nafaqat yordam oluvchi, balki faol fuqarolar, mehnatkashlar, ijodkorlar va yetakchilar sifatida ko‘rilmogda.

Inson qadriini ulug‘lash bugun nutq va shior darajasidan real hayotga kirib keldi. Nogironlar uchun yaratilayotgan huquqiy kafolatlar, zamonaviy texnologiyalar jamiyatimizda hech bir qatlam e’tibordan chetda emasligidan darakdir.

**Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**



Shoir qo‘lida qalam, she‘r xayoli bilan band. Uning qarshisida mayin nur taratib sham yonib turibdi. Alisher qalamning uchi bilan sham piligini yoyib qo‘yadi. Sham ravshanroq yonadi. Ana shunda shoir xayolida she‘r tug‘iladi. Sham yorug‘ligi va kuydirishi bilan uning ko‘z oldida sevikli yori bo‘lib jonlanadi. Axir uning dil uyini yoritgan, zulmatli hayot ichra uning xayolini charog‘on qilgan va tunlar hijronida o‘rtagan yor sham emasmi? Axir yor ham sochini har tomonga yoyib tarasa, husni ortadi – bamisoli piligini, torini tarab yoyib qo‘ysa, sham ravshanroq yongandek. Shoir bu go‘zal tashbihni go‘zal baytga ko‘chiradi.

Husni ortar yuzda zulfan anbar afshon aylagach, Sham‘ ravshanroq bo‘lur torin parishon aylagach.

Alisher qalamni qo‘yib yana xayolga cho‘madi. Poyonsiz yashil kenglikda xanda urib, boshiga chechaklardan chambaraklar qilib, yoqalariga gullar taqib, yayrab yurgan yori ko‘z oldiga keladi. Bu yor muhabbatning tirik timsoli. Ammo shoir uchun u faqat xayolda namoyon bo‘lguchi baxt, aslida, uning yuragi qon, ming xil dard-u azoblar qurboni. Alisher xayolida gul kiygan, yuzini gullar bilan bezagan yorga murojaat qiladi:

Yuzni gullardin bezabmu bizni qurbon aylading, Yo yuzungga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach.

Yo‘q, sen yuzlaringni gullar bilan bezab, meni qurbon qilmading, aksincha, meni qurbon qilgach, sachragan qonlarim yuzingda gullar bo‘lib turibdi. Shoir uchun hayotning beayovligi yorning qotil va beshafqatligida ko‘rinadi. Betinim jangu jadal, qirg‘inlar yorning yag‘mogarligida, zulmkorligida namoyon bo‘ladi. G‘anim lashkari yurtini vayron qilsa, yiroqdagi yorning yuborgan g‘am lashkari, firoy lashkari ko‘ngil mulkini xarob qiladi. Dashti qipchoqdan kelgan yov shaharlarni buzib, tekislab, bog‘larni kesib bug‘doy sepguvlik dala qilgandek, yor oshiqning ko‘ngil kishvarini vayron qilib, tig‘ bilan o‘yib, jarohatdan oqqan qonga sug‘orib, paykon boshog‘larini qadamidimi?

Tig‘ ila paykonlaring itti ko‘ngul bo‘lg‘och xarob, Suv quyub tuxm ekting, ul kishvarni vayron aylagach.

Ya‘ni: “tig‘ ila o‘qlaring ko‘nglimning bog‘i edi, sen uni xarob qilding, meni bog‘imdan mahrum etding...”. Ammo ishq yo‘lida to‘kilgan qon hamisha tabarruk. Agar u dunyoda jannat bo‘lsa, unga chin oshiqlar bormoqqa haqli.

Mana, oshiqni tutib, kaltaklab-jarohatlab, qatl etmoqqa olib keldilar. Hozir uni yechintiradilar, qotil xanjari uning bo‘g‘ziga qadaladi.

“

SHARILLAB OQQAN ISSIQ QON UNING TANIDAGI JAROHLARNI YOPADI. YO‘Q. BU ODDIY QON EMAS. OSHIQNI MUBORAK QILGANI JANNAT MALAKLARI KELGAN. BIZGA QON BO‘LIB KO‘RINGAN NARSA JANNAT XAZINADORI OSHIQNING USTIGA YOPGAN ALVON LIBOS — OLIY MARTABA, TABARRUKLIK TIMSOLI.



Sharillab oqqan issiq qon uning tanidagi jarohatlarni yopadi. Yo‘q. Bu oddiy qon emas. Oshiqni muborak qilgani jannat malaklari kelgan. Bizga qon bo‘lib ko‘ringan narsa jannat xazinadori oshiqning ustiga yopgan alvon libos — oliy martaba, tabarruklik timsoli.

Qon emaskim yopti gulgun hulla jannat xozini, Ishq maqtulin shahid aylarda uryon aylagach.

G‘azal davom etadi. Shoir endi sevgi domiga qay kuni qanday asir bo‘lganini o‘ylaydi. Oshiq aybdormi? U qatl etilishiga loyiq nima gunoh qildi? Aybi dunyoga ochiq ko‘z va yoniq yurak bilan kelganimi? Gunohi go‘zallikdan quvonishi, olamga hayrat ko‘zi bilan boqishimi?

Oshkor aylab yuzin ko‘zumni hayron ayladi, Yoshurun oldi ko‘ngul ko‘zimni hayron aylagach.

Parivash yuzini oshkor qildi-yu, ko‘zni hayratga soldi.

Ko‘zni oshkor hayratga soldi-yu, ko‘ngilni yashirin zabt qildi.

Mana, sulton necha el-u yurtlarni taroq qilib yiqqan ganjini xilvat yerga ko‘mib yashirmoqda. Sulton amri bilan bu ishni bajargan mahramning gunohi nima?

Ganj ko‘mib bo‘lingach, uning boshi ketadi. Mahramning yolg‘iz gunohi — sirdan voqifligi. Mahbuba — yor ham shoir

xayolida sulton, muhabbat esa bitmas boylik — ganj.

Olamda shunday ganj borligini, muhabbat atalgan boylik borligini oshiq biladi. Chunki bu ganj uning jonida. Xazina sohibi yor, uni jonga ko‘mgan oshiq shoirming ko‘ngli. Maxfiy sirdan yolg‘iz u voqif. Demak u mahkum.

Jonda qo‘ygach naqdi ishqing qildi ko‘nglumni halok, O‘lturur mahramni sulton ganj pinhon aylagach.

Mana, g‘azal bitdi. Zamonning qattoligi, yorning beshafqatligi, oshiqning mahkumligi namoyon bo‘ldi. Oshiqning gunohi nima degan savolga javob chiqdi. Endi yolg‘iz bir savol qoldi. O‘sha oshiq kim? Bu Navoiyning o‘zi. Axir ishq shoir ko‘nglini majruh etmaganda bu qonli afg‘on, bu dard to‘la satrlar tug‘ilmadi?

Ey Navoiy, ishq agar ko‘nglungni majruh etmadi, Bas nedurkim, qon kelur og‘zingdin afg‘on aylagach?!

Navoiy afg‘oni asrlar o‘tib, bizga yetib keldi. Qalbimizda aks sado topdi. Men bog‘lagan taxmis ana shu aks sadoning kichik bir ifodasi.



Navoiy g‘azaliga muxammas

Ko‘z ochar gulshanda g‘uncha, bulbul afg‘on aylagach, Nega afg‘on aylay, ul gul yuzni tobon aylagach, Misli oykim, ko‘rk ochur sayri shabiston aylagach, Husni ortar yuzda zulfan anbar afshon aylagach, Sham ravshanroq bo‘lur torin parishon aylagach.

Nega ul kun sochlaringni anbar afshon aylading? Ro‘zigorim tiyra, ko‘zim kavkabiston aylading? Qo‘lga ko‘ygachmu xinolar yo dilim qon aylading, Yuzni gullardin bezabmu bizni qurbon aylading, Yo yuzungga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach.

Mehr so‘ndirgach dilida, jonni so‘zon ayladi, Husnini obod etib, ko‘nglimni vayron ayladi, Sehr aylab oshiqoro, bandi pinhon ayladi, Oshkor aylab yuzin ko‘zumni hayron ayladi, Yoshurun oldi ko‘ngul ko‘zimni hayron aylagach.

Men-ku sodiq mahram erdim og‘zi mahkam, ko‘ngli pok, Ishq sirin etmasdim oshkor bo‘lgunimcha toki xok, Shafqat istab nola qildim, ont ichib yoqamni chok, Jonda qo‘ygach naqdi ishqing qildi ko‘nglumni halok, O‘lturur mahramni sulton ganj pinhon aylagach.

Nola-yu afg‘oning, Erkin, dilbaringga yetmadi, Yetsa ham yo bemehr yor zarra parvo etmadi, Bitdi ko‘p zahming va lekin ishq zahmi bitmadi, Ey Navoiy, ishq agar ko‘nglungni majruh etmadi, Bas nedurkim, qon kelur og‘zingdin afg‘on aylagach?!

Erkin VOHIDOV, O‘zbekiston xalq shoiri

MEZON

YANGI O‘ZBEKISTON

Mulohaza

O‘zbekiston — ko‘p millatli davlat. Hozir yurtimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari yashaydi. Bu oddiy statistika emas, balki o‘zaro do‘stlik, ahillik, birdamlik ruhiyatining raqamlardagi ifodasi. Har bir millatning umumiy manfaatlari bilan birga urf-odatlar, qadriyatlar ham bor. Mamlakatimizda turli millatlar manfaatini uyg‘unlashtirish, ular orasida do‘stlik, totuvlikni ta‘minlash taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan.

BAG‘RIKENGLIK, INSON QADRI VA BIRDAMLIK RUHI

GLOBAL TAHDIDLAR OLDIDA ENG KUCHLI QALQON

Bugun yurtimizdagi islohotlar markazida “inson qadri uchun” tamoyili ustuvor turibdi. O‘zbekistonda barcha fuqaro uchun teng huquq va imkoniyatlar yaratilgan. Har bir millat tarixi, qadriyatlar, urf-odatlarini asrab-avaylash va rivojlantirish imkoniga ega.

Dunyoda globallashev, migratsiya, xalqaro nizolar kuchaygan bir paytda tinchlik va xotirjamlik geosiyosiy olamda kiprikdagi yoshday omonat bo‘lib qolmoqda. Yurtimizda ichki barqarorlikni saqlashga katta e‘tibor qaratilayotgani, turli millat vakillari o‘rtasida o‘zaro birdamlik, hurmat va ishonch ortib borayotgani davlatimiz rahbari boshlagan islohotlarning amaliy natijasidir.

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasidagi nutqida mamlakatlar o‘rtasida ishonch va hamkorlik bo‘lmasa, barqaror taraqqiyot bo‘lishi mumkin emasligi haqida to‘xtalgan edi. O‘zbekiston tashqi siyosatda faol, ochiq va hamkorlikka tayyor davlat sifatida tan olingan. Qo‘shnilar bilan chegara masalalari hal qilindi, Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatish tashabbusi ko‘tarildi, Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida hamjihatlik va muloqot yangi bosqichga chiqdi.

Mamlakatimiz tashqi siyosatida yuz berayotgan bunday yangilanishlar nafaqat



Mahfuza YO‘LDOSHEVA, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori, “Ma‘rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a‘zosi

olishga tayyorligi, insonparvarlik yordami ko‘rsatish va xavfsizlikni ta‘minlashdagi amaliy qadamlari xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholanoqda.

2017-yildan buyon Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan chegara hamda suv manbalari bo‘yicha kelishuvlar, savdo-iqtisodiy aloqalar kengayishi nafaqat mintaqaviy barqarorlikni ta‘minlamoqda, balki ko‘p qutbli dunyoda yangi geosiyosiy muvozanatni vujudga keltirmoqda.



minatqaviy barqarorlik, balki xalqaro munosabatlarda tinchlikparvar va bag‘rikeng yondashuvning mustahkam poydevoriga aylanayapti. O‘zbekiston tashqi siyosat diktiratsiya hamkorlik, tinchlik, ochiqlik va o‘zaro manfaatdorlik tamoyillari asosiy mezon sifatida belgilangani yurtimizning xalqaro maydondagi nufuzini sezilarli darajada oshirdi.

O‘zbekiston diplomatiyasidagi yangi bosqich inson qadri va huquqlarini birinchi o‘ringa qo‘yadigan, bag‘rikenglik va xalqlar o‘rtasida o‘zaro hurmatni yuksaltiruvchi yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu yo‘lda mamlakatimiz qo‘shni davlatlar bilan tarixiy nizolarni emas, balki umumiy kelajakni muhokama qilish, kelishuv va hamkorlikka intilish orqali yangicha siyosatga yo‘l ochyapti. Xususan, Afg‘oniston muammosida O‘zbekistonning vositachilik funksiyasini

O‘zbekiston islom madaniyati beshiklaridan biri sifatida hamisha bag‘rikenglik, ma‘rifat va ilmparvarlik g‘oyalari tarqatib kelgan. Bugun ham turli din, millat va madaniyat vakillari bilan muloqot, hamkorlik va hamjihatlik siyosatining tashabbuskoriga aylanmoqda. Bu jarayonda, albatta, “O‘zbekiston — yangilanish va taraqqiyot yo‘lida” degan siyosiy konsepsiya g‘oyat muhim ahamiyatga ega.

Milliy manfaatlar va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi mamlakat tashqi siyosatining nafaqat muvozanatli, balki ilg‘or va barqaror yo‘nalishiga aylanmoqda.

Ikkinchi jahon urushining iztirobli yillarida yurtimizga yuz minglab boshqa millat va elat vakillari kelganida ularni mahalliy xalq o‘z farzandlaridek qabul qilgan. Hozir ham barcha millat vakillari davlat idoralarida, ilm-fan, madaniyat, sport sohalarida tengma-teng ishtirok etmoqda.

Har bir millat, har bir xalq o‘z madaniyati, tili, urf-odati bilan qadri hamda boydir. Ammo ana shu xilma-xillik qalblarda hamjihatlik, bag‘rikenglik va umuminsoniy qadriyatlar asosida uyg‘unlashganda el-yurt taqdiri yorug‘ kelajakka yo‘naladi. O‘zbekiston — ana shunday millatlararo birdamlik namunasi bo‘la oladigan davlat.

Inson doim egzulik sari intiladi, yaxshi amallari bilan boshqalar ko‘nglidan joy olishga harakat qiladi. Millatlararo bag‘rikenglik g‘oyasini ilmu ma‘rifat orqali farzandlarimizga singdirib borish bugun har birimizning ma‘naviy burchimizga aylanishi lozim. Qo‘shnisining millati kim bo‘lishidan qat‘i nazar, uning holidan xabar olish, bir kosa taom bilan siylash qalbida egzulik yashaydigan insonlarga xos fazilat. Shukrki, bunday fazilatga ega insonlar ko‘p. Bir-birining oilaviy quvonchiga sherik, qayg‘uli kunida hamdard bo‘lish millat, elat tanlamaydi. Aksincha, insoniylik, olijanob qadriyat sifatida ko‘riladi va bu farzandlarimiz uchun yuksak ma‘naviy ibrat vazifasini o‘taydi.

Yurtimizda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni kelajak avlod ongiga singdirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Maktablar, universitetlar, yoshlar markazlari va ommaviy axborot vositalari orqali yoshlarga do‘stlik, bag‘rikenglik, birdamlik g‘oyalari yetkazilmoqda. “Yoshlar — yangi O‘zbekiston poydevori” degan egzu g‘oya aynan shu maqsadda hayotga tatbiq etilmoqda.

Millatlararo hamjihatlik nafaqat tinchlik va barqarorlik kafolati, balki har bir fuqaroning yurtga daxldorlik tuyg‘usini yuksaltirish, ijtimoiy adolatni ta‘minlash, demokratiyani mustahkamlash yo‘lidagi asosiy omildir. Diniy bag‘rikenglik g‘oyasi xilma-xil diniy e‘tiqodga ega kishilarning bir zamin, bir yurtda olijanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashini anglatadi.

Yurtimizda ushbu siyosat faqat huquqiy emas, balki ma‘naviy qoidalariga asoslangan. Shu bois, yangi O‘zbekiston millatlararo do‘stlikni qadrlaydigan, kelajakni birga qurishga intiluvchi davlat.

Millatlararo totuvlik va birdamlik har bir yurt ravnaqi uchun asosiy poydevordir. Bu birdamlik bizga tinchlik bilan birga, go‘zal hayot, ma‘naviy boylik va mustahkam kelajak beradi. Kelajagimiz porloq bo‘lishini istasak, bir-birimizni qadrlash, hurmat qilish va birgalikda yurtini obod etishni maqsad qilaylik!

O‘zbekistonda millatni ajratish emas, birlashtirish g‘oyasi ustuvor. Qonunni hurmat qilgan, el qadriga yetgan har qanday fuqaro, millatidan qat‘i nazar, shu yurt farzandidir.

Millatlararo totuvlik faqat siyosiy barqarorlik emas, balki ma‘naviy ruhning tinchligi, yurtning nafasi, kelajakning kafolatidir. Har bir millat o‘z taqdirini o‘zi hal qiladi, millatlar birlashsa, butun dunyoga o‘z so‘zini aytadi! Agar odamlar bir-birini tushunsa, hurmat qilsa, insonni inson deb qadrlasa, u yurtdagi barqarorlikni hech qanday mafkuraviy tahdid, millatlararo nizo, chetdan kirib keladigan g‘oyalar buza olmaydi. Millatlararo hamjihatlik bugun O‘zbekistonda global tahdidlar oldida eng kuchli qalqonga aylantirmoqda. Bu esa millatlararo birdamlik ruhida yashayotgan ko‘p millatli xalqimizning yuksak ma‘naviy salohiyati natijasidir!

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-646.
36191 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turok ko‘chasi, 41-uy.

O‘ZA yakuni — 00:10 Topshirildi — 00:30

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz; (71) 233-47-05